Navoiy shahri
"Davlat xizmatlari
markazi" tomonidan
2026-yil 23-sentabrda
336 0996 -son bilan
"RO'YXATGA OLINGAN"

"Navoiyazot" AJ
Yagona aksiyadorining
2026-yil 21-sentabrdagi
79-son qaroriga muvofiq
TASDIQLANGAN

"NAVOIYAZOT" AKSIYADORLIK JAMIYATI USTAVI

(YANGI TAHRIR)

Navoiy-2026

"REGISTERED"
at the "Public Services
Center" of Navoi
on September 23, 2026
No. 336 0996

"APPROVED"
By Resolution No. 79
of the Sole Shareholder
of JSC "Navoiyazot"
dated September 21, 2026

CHARTER OF THE JOINT-STOCK COMPANY "NAVOIYAZOT"

(NEW EDITION)

Navoi-2026

O‘zbek tilida	English
Muqaddima	**Preamble**
A. “Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyatining avvalgi tahrirdagi Ustavi 2026-yil 09-aprel kuni “Navoiyazot” AJ aksiyadorlarning umumiy yig‘ilish qaroriga asosan tasdiqlangan (Navoiy shahar Davlat xizmatlari markazi tomonidan 2026-yil 27-aprelda 3909048-son raqami bilan ro‘yxatga olingan). B. Ustavda quyidagi normativ hujjatlarning qoidalari aks ettirilgan: -O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2015-yil 28-apreldagi PQ-2340-son qarori; - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2015-yil 15-maydagi PF-4725-sonli farmoni; - O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 06-maydagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-370-sonli Qonuni; - Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi yig‘ilishining 2015-yil 31-dekabrdagi 9-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Korporativ boshqaruv kodeksi” va Davlat aktivlari agentligining 2023-yil 23-iyundagi 145-son buyrug‘ining 1-ilovasi “Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari”; - O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2019-yil 20-martdagi O'RQ -531-son, 2021-yil 29-oktabrdagi O'RQ-726-son, 2022-yil 14-martdagi O'RQ-759-son, 2022-yil 29-martdagi O'RQ-760-son, 2023-yil 18-yanvardagi O'RQ-814-son qonunlari; - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 08-apreldagi “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi PF-101-sonli farmoni. C. Mazkur Ustav “Navoiyazot” AJ Yagona aksiyadorining 2026-yil 21-sentabrdagi qarori bilan yangi tahrirda tasdiqlangan.	A. The previous version of the Charter of “Navoiyazot” Joint-Stock Company was approved pursuant to a resolution of the General Meeting of Shareholders of “Navoiyazot” JSC on April 09, 2026 (registered by the Navoi City Public Services Center on April 27, 2026, under number 3909048). B. The Charter reflects the provisions of the following regulations: - The Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 28, 2015 No.PD-2340 "On measures to increase the share and importance of private property in the economy"; - The Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 15, 2015 No.PD-4725 "On measures to ensure reliable protection of private property, small business and private entrepreneurship, removing barriers to their accelerated development"; -The Law of the Republic of Uzbekistan "On Amendments and Additions to Certain Legislative Acts of the Republic of Uzbekistan", including the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint-Stock Companies and the Protection of Shareholders' Rights" No.LRU -370 from May 6, 2014; - “Corporate Governance Code”, approved by Minutes of the meeting of the Commission on increasing the efficiency of joint-stock companies and improving the corporate governance system dated December 31, 2015 No. 9, and Appendix 1 to the Order of the State Assets Agency dated June 23, 2023 No. 145 “Corporate Governance Rules for Enterprises with State Participation”; -Laws of the Republic of Uzbekistan "On Amendments and Additions to Certain Legislative Acts of the Republic of Uzbekistan" dated March 20, 2019 No. LRU-531, dated October 29, 2021 No. LRU-726, dated March 14, 2022 No.LRU-759, dated March 29, 2022 No. LRU-760, dated January 18, 2023 No. LRU-814; -The Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 8, 2022 No.PD-101 "On the next reforms to create conditions for stable economic growth by improving the business environment and developing the private sector." C. These Articles of Association were approved in a new edition by the Resolution of the Sole Shareholder of JSC Navoiyazot dated September 21, 2026.

I. TO‘LIQ VA QISQARTIRILGAN FIRMA NOMI	I. FULL AND ABBREVIATED COMPANY NAME
1.1. “Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyati (matn davomida Jamiyat deb nomlanadi), ustav fondi aksiyadorlarning jamiyatga nisbatan majburiy huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti hisoblanadi. ***Jamiyatning to‘liq nomlanishi:*** O‘zbek tilida (kirill alifbosida): “Navoiyazot”aksiyadorlik jamiyati O‘zbek tilida (lotin alifbosida): “Navoiyazot”aksiyadorlik jamiyati Rus tilida: Aksionernoe obщestvo “Navoiyazot” Ingliz tilida: Navoiyazot joint stock company ***Jamiyatning qisqartirilgan nomlanishi:*** O‘zbek tilida (kirill alifbosida): “Navoiyazot” AJ O‘zbek tilida (lotin alifbosida): “Navoiyazot” AJ Rus tilida: AO “Navoiyazot” Ingliz tilida: Navoiyazot JSC	1.1. Joint Stock Company "Navoiyazot" (hereinafter referred to as Navoiyazot) is a commercial organization whose authorized capital is divided into a certain number of shares certifying the obligatory rights of shareholders in relation to Navoiyazot. ***Full name of the company:*** Uzbek (Cyrillic): «Navoiyazot» акциядорлик жамияти Uzbek (Latin): «Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyati Russian: Акционерное общество «Navoiyazot» English: Navoiyazot joint stock company ***Abbreviated name of the company:*** Uzbek (Cyrillic): “Navoiyazot” АЖ Uzbek (Latin): “Navoiyazot” AJ Russian: AO «Navoiyazot» English: Navoiyazot JSC
II. JAMIYATNING JOYLASHGAN MANZILI VA ELEKTRON POCHTASI	**II. LOCATION AND THE ELECTRONIC ADDRESS OF THE COMPANY**
2.1. Joylashgan manzili (pochta adresi): O‘zbekiston Respublikasi, 210105, Navoiy viloyati, Navoiy shahri-5; Elektron pochta manzili: office@navoiyazot.uz Rasmiy veb-sayti: www.navoiyazot.uz	2.2. Location (mailing address):Republic of Uzbekistan, 210105, Navoi region, Navoi-5 Email address: office@navoiyazot.uz Website address: www.navoiyazot.uz
III. JAMIYATNING FAOLIYAT YURITISH MUDDATI	**III. DURATION OF THE COMPANY'S ACTIVITIES**
3.1. Jamiyatning faoliyat ko‘rsatish muddati cheklanmagan.	3.1. The duration of Navoiyazot's activities is not limited.
IV. JAMIYATNING HUQUQIY MAVQEI VA HUQUQLARI	**IV. LEGAL STATUS AND RIGHTS OF THE COMPANY**
4.1. Jamiyat davlat korxonasi hisoblangan “Navoiazot” ishlab chiqarish birlashmasini O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Davlat Qo‘mitasining 2002-yil 29-martdagi 86k-PO-sonli buyrug‘iga muvofiq “Navoiyazot” Ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklida qayta tuzish natijasida ta’sis etilib, shundan so‘ng, “Navoiyazot” OAJning barcha huquq va majburiyatlarining huquqiy vorisi hisoblangan holda, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni yangi tahrirda tasdiqlanishi	4.1. The Society was established as a result of the transformation of the state enterprise Production Association Navoiyazot into the form of Open Joint-Stock Company Navoiyazot in accordance with the order of the State Committee of the Republic of Uzbekistan for State Property Management and Support of Entrepreneurship dated March 29, 2002 No. 86k-PO, hereinafter in the form of Joint-Stock Company “Navoiyazot” in connection with the approval of the new version of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights" (Law of the Republic of Uzbekistan "On

munosabati bilan (O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 06-maydagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-370-sonli Qonuniga muvofiq) “Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyati shaklida qayta tuzilgan. 4.2. Jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran yuridik shaxs maqomiga ega va o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida va mazkur Ustavga muvofiq amalga oshiradi. 4.3. Jamiyat xo‘jalik, moliyaviy, tashkiliy va yuridik jihatdan mustaqil yuridik shaxs hisoblanib, u o‘z mustaqil balansiga, alohida mol-mulkka, shu jumladan, o‘zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka egadir. O‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishga haqlidir, buxgalteriya hisobini yuritishning O‘zbekiston Respublikasida va Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarida umumqabul qilingan amaliyotiga muvofiq buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritishi va balans hisobotlarini, foyda va zarar to‘g‘risida hisobotlarni, statistik va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashi lozim. 4.4. Jamiyat o‘zining tashkiliy-huquqiy shakli ko‘rsatilgan to‘liq firma nomiga va qisqartirilgan firma nomiga ega bo‘lishi mumkin. Jamiyat o‘zining firma nomi davlat tilida to‘liq yozilgan hamda joylashgan joyi ko‘rsatilgan yumaloq muhrga ega bo‘lishi lozim. Jamiyat o‘zining nomi yozilgan muhr, shtamp va blankalarga, o‘z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo‘lishga haqli. 4.5. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasining butun hududida va boshqa mamlakatlarda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq shu’ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarini, filial va vakolatxonalarini tuzishga haqli.	Amendments and Additions to the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights" No. LRU-370 dated May 6, 2014), being the legal successor of all rights and obligations of Navoiyazot JSC. 4.2. The Society acquires the status of a legal entity from the moment of its state registration and carries out its activities in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan and this Charter. 4.3. The Society is an independent legal entity in economic, financial, organizational, and legal terms, and it owns its own independent balance sheet, separate property, including property contributed to its charter fund (charter capital). It has the right to acquire and exercise property and personal non-property rights in its own name, assume obligations, and act as a plaintiff or defendant in court. The Society shall maintain accounting records and prepare financial statements in accordance with generally accepted accounting practices in the Republic of Uzbekistan and International Financial Reporting Standards(IFRS), including balance sheets, profit and loss statements, as well as statistical and financial reports. 4.4. The Society may have a full trade name and an abbreviated trade name indicating its organizational and legal form. The Society must have a round seal bearing its full name in the state language and indicating its location. The Society has the right to possess a seal, stamps, and letterheads bearing its name, as well as its emblem, and a trademark duly registered in accordance with the established procedure, along with other means that reflect the individual characteristics of participants in civil transactions, goods, works, and services. 4.5. The Society has the right to establish business entities, branches and representative offices throughout the Republic of Uzbekistan and in other countries in accordance with the requirements of the legislation of the Republic of Uzbekistan.
V. JAMIYAT FAOLIYATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA MAQSADI	**V. MAIN DIRECTIONS AND PURPOSE OF THE SOCIETY'S ACTIVITIES**
5.1. Jamiyat o‘z faoliyatini tijorat asosida amalga oshiradi va uning asosiy maqsadi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatidan foyda olishdir, shuningdek Jamiyat faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish uchun uning ishtirokchilari (aksiyadorlari)ni iqtisodiy manfaatlarini, intellektual salohiyatini, moddiy, nomoddiy, mehnat va moliyaviy resurslarini birlashtirishdir. 5.2. Jamiyat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: -mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarish va sotish; -xalq xo‘jaligi tovarlarini ishlab chiqarish va sotish;	5.1. The Society carries out its activities on a commercial basis and its main goal is to make a profit from financial and economic activities, as well as to combine the economic interests, intellectual potential, material, intangible, labor and financial resources of its participants (shareholders) in order to carry out economic activities aimed at increasing the efficiency of the Company's activities. 5.2. The main areas of activity of the society are: -production and sale of mineral fertilizers; -production and sale of national economic goods;

-organik sintez va kam tonnajli kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish; -mahsulot, ish va xizmatlarning boshqa turlarini ishlab chiqarish va sotish. 5.3. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan har qanday boshqa faoliyatni amalga oshirishga haqli. Amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab qilinadigan faoliyat turlari qonunchilikda belgilangan tartibda litsenziya berilganidan so‘ng amalga oshiriladi. 5.4. Jamiyatning 5.1-bandda belgilangan maqsadlarini amalga oshirish uchun faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘ladi: 5.4.1. mahsulot ishlab chiqarish va tovarlarni sotish, korxonalar, tashkilotlar va fuqarolar uchun ishlarni bajarish va ularga xizmat ko‘rsatish; 5.4.2. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish; 5.4.3. O‘z tovar va xizmatlariga narxlarni, xarid qilish va sotish shartlarini mustaqil belgilash (monopol mahsulot reestriga kiritilgan va narxlarni tartibga solish organi tomonidan deklaratsiyalanishi lozim bo‘lgan mahsulot bundan mustasno); 5.4.4. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida mustaqil ravishda yoki vositachilar orqali ulgurji va chakana savdoni amalga oshirish; 5.4.5. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida tovar va mol-mulkning barcha (moddiy va nomoddiy, ko‘chmas va ko‘chadigan) turlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, ko‘rish, qo‘lga kiritish, ular yuzasidan bitimlar tuzish, ijaraga olish yoki boshqa tarzda qo‘lga kiritish va/yoki yuqorida ko‘rsatilgan mol-mulkni ijaraga berish, garovga qo‘yish, undan foydalanish huquqini boshqa shaxslarga berish yoki istalgan boshqa tarzda uni tasarruf qilish; 5.4.6. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida istalgan shaxslar bilan mustaqil tarzda bitim va kelishuvlarni tuzish, tijorat va xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanish hamda zimmasiga majburiyatlar olish; 5.4.7. mazkur Ustavning 5.1-bandida va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan jamiyatning tijorat faoliyati va uning asosiy vazifalari uchun zarur va mos bo‘lgan import va eksport amaliyotini mustaqil tarzda yoki vositachilar orqali amalga oshirish; 5.4.8. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida shirkatlar, qo‘shma va sherikchilik korxonalarni tuzish bo‘yicha bitimlarni tuzish va bekor qilish;	-production and sale of organic synthesis and low-tonnage chemical products; -production and sale of other types of products, works and services. 5.3. The Society has the right to carry out any other activities not prohibited by the legislation of the Republic of Uzbekistan. Activities requiring a special permit (license) for their implementation shall be carried out after the issuance of a license in accordance with the procedure established by law. 5.4. The main areas of activity of the Society to implement the goals set out in clause 5.1 will be as follows: 5.4.1. to product production and selling goods, performing work and providing services to enterprises, organizations and citizens; 5.4.2. to conduct foreign economic activities in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan; 5.4.3. Independently to set prices, purchase and sale terms for its goods and services (with the exception of products included in the register of monopoly products and subject to declaration by the price regulation body); 5.4.4. to carry out wholesale and retail trade independently or through intermediaries within the territory of the Republic of Uzbekistan and beyond, in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan; 5.4.5. to produce, process, view, acquire, and conclude transactions involving all types of goods and property (tangible and intangible, movable and immovable) within the territory of the Republic of Uzbekistan and beyond, in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan; to lease or otherwise acquire such property and/or to lease, pledge, transfer the right of use to other persons, or otherwise dispose of the above-mentioned property; 5.4.6. to conclude independently agreements and contracts with any persons, engage in commercial and economic activities and assume obligations within the territory of the Republic of Uzbekistan and beyond, in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan; 5.4.7. independently or through intermediaries to carry out import and export operations necessary and appropriate for the commercial activities of the company and its main tasks, as defined in clause 5.1 of this Charter and the legislation of the Republic of Uzbekistan; 5.4.8. to conclude and terminate agreements on the establishment of companies, joint ventures and partnerships in the territory of the Republic of Uzbekistan and outside it, in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan; 5.4.9. to establish subsidiary and subordinate economic entities, branches

5.4.9. O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarini, filial va vakolatxonalarini tuzish;	and representative offices in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan and outside it;
5.4.10. tovar va valyuta birjalarining ishida ishtirok etish;	5.4.10. to participate in the work of commodity and currency exchanges;
5.4.11. mablag‘larni qarzga olish yoki mablag‘ to‘plashni tashkil etish, jamiyat majburiyatlari buyicha yoki qarzdorning mol-mulkiga band solish yo‘li bilan har qanday shaxsga garov taqdim etish;	5.4.11. to organize the borrowing or raising of funds, to provide security to any person for the obligations of the company or by means of a lien on the debtor's property;
5.4.12. jamiyat mablag‘larini O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida investitsiya shaklida kiritish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq investitsiyalar, aksiyalar, kreditlar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni qo‘lga kiritish va/yoki boshqa shaxslarga o‘tkazish, almashtirish va ulardan boshqa tarzda foydalanish;	5.4.12. to invest the company's funds in the territory of the Republic of Uzbekistan and outside it, as well as to acquire investments, shares, loans and other securities and/or transfer them to other persons, exchange them and use them in any other way in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan;
5.4.13. jamiyat fondlarini jamiyatning va uni istalgan sho‘ba korxonasining xo‘jalik faoliyatini kengaytirish uchun ishlatish;	5.4.13. to use of company funds to expand the business activities of the company and any of its subsidiaries;
5.4.14. istalgan shaxsga kafolat bilan yoki kafolatsiz, muvofiq bo‘lgan istalgan shartlarda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq pul mablag‘larini qarzga yoki avans (bo‘nak) sifatida berish yoki boshqa tarzda qarz berish;	5.4.14. to lend or advance funds or otherwise lend money to any person, with or without collateral, on any appropriate terms and conditions in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan;
5.4.15. jamiyatning har qanday mulkini yoki istalgan boshqa shaxsning kontraktlari yoki majburiyatlari bajarilishini majburiyatlar bilan yohud qarzdorning mol-mulkiga band solish huquqi bilan kafolatlash;	5.4.15. to secure any property of the Society or the performance of contracts or obligations of any other person by means of a lien or a right to attach the debtor's property;
5.4.16. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq jamiyatning istalgan aksiyalari va/yoki boshqa qimmatli qog‘ozlarini chiqarish yoki ularni istalgan shaxsga sotish hamda shunday chiqarish yoki sotish yuzasidan har qanday bitimga kirish;	5.4.16. to issue or sell any shares and/or other securities of the Society to any person in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan, and enter into any transaction regarding such issue or sale;
5.4.17. ishonchnomalar berish;	5.4.17. to issue of power of attorney;
5.4.18. O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq har qanday savdo markalari, nomlari, xizmat ko‘rsatish belgilari, dizaynlar, patentlar, ixtirolar, nou-xaular va intellektual mulkning boshqa shakllarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun ariza berish va ro‘yxatdan o‘tkazish, ularni sotib olish yoki o‘zga usulda qo‘lga kiritish, sotish, litsenziyalash, o‘zga shaxslarga berish yoki ular bilan savdo qilish;	5.4.18. to file applications for registration and register any trademarks, trade names, service marks, designs, patents, inventions, know-how, and other forms of intellectual property, and to acquire, purchase, sell, license, transfer to other persons, or otherwise deal with them, within the territory of the Republic of Uzbekistan and beyond, in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan;
5.4.19. har qanday shaxsni yollash, jamiyatning har qanday mansabdor shaxsiga yoki xodimiga yoki sobiq mansabdor shaxsi yoki xodimiga yohud ularning qarindosh-urug‘lari yoki boqimandalariga ish haqi, pensiya va boshqa nafaqalarni to‘lash, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq pensiyalar, nafaqalar, mukofotlar va rag‘batlantirishlarni to‘lash bo‘yicha rejalarni ishlab chiqish va joriy qilish;	5.4.19. to hire any person, to pay salaries, pensions and other benefits to any official or employee of the company or former official or employee, or their relatives or dependents, to develop and implement plans for the payment of pensions, benefits, bonuses and incentives in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan;
	5.4.20. to carry out insurance against losses, risks and other types of liability in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan;

5.4.20. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yo‘qotishlar, tavakkalchiliklar va ma’suliyatning boshqa turlaridan sug‘urtani amalga oshirish; 5.4.21. O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida ko‘rgazmaar va kimoshdi savdolarini tashkil etish va ularda ishtirok etish va shu kabi faoliyat bilan shug‘ullanish; 5.4.22. basharti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2015-yil 15-maydagi PF-4725-sonli farmoni talablariga zid bo‘lmasa, xayriya va homiylik badallarini ajratish hamda sog‘likni saqlashga, madaniyatga va ilm-fanga mablag‘lar ajratish; 5.4.23. O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mustaqil tartibda yoki boshqa shaxslar bilan hamkorlikda yoki ular orqali yoxud agent, ikkilamchi pudratchi, sho‘ba korxonasi yoki vakolatxona vositachiligida yoki o‘zga usulda rahbar, agent, pudratchi yoki boshqa sifatda faoliyat yuritish; 5.4.24. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq jamiyat qaramog‘ida tibbiy muassasalarni ta’minlash yo‘li bilan tibbiy yordam ko‘rsatish; 5.4.25. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq reklama kompaniyalarini tashkil etish; 5.4.26. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ommaviy axborot vositalarini chop etishni tashkil etish; 5.4.27. savdo va savdo-vositachilik, jumladan eksportga yo‘naltirilgan faoliyatni amalga oshirish; O‘zbekiston Respublikasida va undan tashqarida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ham mahalliy, ham xorijiy tayanch valyutada tovar (xizmat)larni xarid qilish/sotish.	5.4.21. to organize and participate in exhibitions and auctions in the territory of the Republic of Uzbekistan and beyond, and to engage in similar activities; 5.4.22. to allocate charitable and sponsorship contributions and allocate funds for healthcare, culture and science, provided that this does not contradict the requirements of the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures to ensure reliable protection of private property, small business and private entrepreneurship, and eliminate obstacles to their accelerated development” No. PD -4725 dated May 15, 2015; 5.4.23. to act as a manager, agent, contractor or in any other capacity within the territory of the Republic of Uzbekistan and outside it, independently or in collaboration with or through other persons, or through an agent, subcontractor, subsidiary or representative office, or in any other manner, in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan; 5.4.24. to provide medical care by providing medical institutions under public care in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan; 5.4.25. to organize of advertising companies in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan; 5.4.26. to organize of printing of mass media in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan; 5.4.27. to carry out trade and trade brokerage activities, including export-oriented activities; purchasing/selling goods (services) in both local and foreign base currencies in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan and abroad.
VI. JAMIYATNING USTAV FONDI VA AKSIYALARI	**VI. SOCIETY FUNDS AND SHARES**
6.1. Jamiyatning Ustav fondi Aksiyadorlar tomonidan xarid qilingan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi. Jamiyat chiqaradigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo‘lishi lozim. 6.2. Jamiyatning har bir ishtirokchisi jamiyat aksiyalarini xarid qilganidan so‘ng mazkur Ustavdan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi va bundan keyin «Aksiyador» deb nomlanadi. 6.3. Jamiyatning mol-mulki Ustav fondiga kiritilgan hissalar, xo‘jalik faoliyati natijasida jamiyatda ishlab chiqarilgan mahsulot, olingan daromadlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ruxsat etilgan boshqa asoslarda qo‘lga kiritilgan o‘zga mol-mulkdan hosil bo‘ladi.	6.1. The authorized capital of the company consists of the nominal value of the company's shares purchased by shareholders. The nominal value of all shares issued by the company must be the same. 6.2. Each participant of the Society, after purchasing shares of the Society, shall have the rights and obligations arising from this Charter and shall hereinafter be referred to as the "Shareholder". 6.3. The property of the Society is formed from contributions to the authorized fund, products produced by the Society as a result of economic activities, income received, as well as other property acquired on other grounds permitted by the legislation of the Republic of Uzbekistan.

6.4. Jamiyatning Ustav fondi **731 971 152 698,94** (yetti yuz o‘ttiz bir milliard to‘qqiz yuz yetmish bir million bir yuz ellik ikki ming olti yuz to‘qson sakkiz) so‘mdan iborat. 6.5. Jamiyat aksiyalarining umumiy miqdori **3 732 451 954** (uch milliard yetti yuz o‘ttiz ikki million to‘rt yuz ellik bir ming to‘qqiz yuz ellik to‘rt) dona nominal qiymati 196 so‘m 11 tiyin (bir yuz to‘qson olti so‘m o‘n bir tiyin) bo‘lgan oddiy nomli hujjatsiz aksiyalardan iborat. 6.6. Jamiyatning joylashtirilgan va e’lon qilingan aksiyalari “Qimmatli qog‘ozlarning Markaziy depozitariysi” aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlari reestrida aks etadi.	6.4. The Charter capital of the Society amounts to **731,971,152,698.94** (seven hundred thirty-one billion nine hundred seventy-one million one hundred fifty-two thousand six hundred ninety-eight) soms.. 6.5. Total number of shares of the Society is **3 732 451 954** (three billion seven hundred thirty-two million four hundred fifty one thousand nine hundred fifty-four) ordinary registered uncertificated shares with a nominal value of 196 soums 11 tiyins (one hundred ninety-six soums and eleven tiyins). 6.6. The Society's placed and announced shares are reflected in the register of shareholders of the Central Securities Depository Joint Stock Company.
VII. USTAV FONDINI KO‘PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI	**VII. PROCEDURE FOR INCREASING AND DECREASING THE AUTHORITY FUND**
7.1. Ustav fondini ko‘paytirish: 7.1.1. jamiyatning ustav fondi qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirilishi mumkin. 7.1.2. jamiyat aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog‘ozlarni ochiq va yopiq obuna vositasida, tashkil etilgan qimmatli qog‘ozlar savdolariga chiqarish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda joylashtirishga haqli. 7.1.3. qo‘shimcha aksiyalar e’lon qilingan Jamiyat ustavida belgilangan aksiyalarning soni doirasidagina Jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin. 7.1.4. jamiyatning ustav fondini aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yo‘li bilan ko‘paytirish to‘g‘risidagi va Jamiyatning mazkur Ustaviga tegishli o‘zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi. Basharti Kuzatuv kengashi bu masalalar yuzasidan bir ovozdan qarorga kelolmagan bo‘lsa, bunday qaror mazkur Ustav va qonunchilikda belgilangan tartibda Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi tomonidan ko‘rib chiqilishi va tasdiqlanishi lozim. 7.1.5. jamiyatning ustav fondini qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirish to‘g‘risidagi qarorda joylashtiriladigan qo‘shimcha oddiy aksiyalarning va imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari va shartlari, jumladan, qonunchilik va mazkur Ustavga muvofiq joylashtirilayotgan aksiyalarni imtiyozli sotib olish huquqiga ega aksiyadorlar uchun Jamiyatning qo‘shimcha aksiyalarini joylashtirish shartlari belgilangan bo‘lishi kerak. Jamiyatning ustav fondini qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yuli bilan ko‘paytirish joylashtirilgan qo‘shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Bunda Jamiyat ustavida ko‘rsatilgan e’lon qilingan muayyan turdagi	7.1.Increase the authorized capital: 7.1.1. The authorized capital of the Society may be increased by placing additional shares. 7.1.2.The Society has the right to place shares and securities convertible into shares through open and closed subscriptions in the manner prescribed by the legislation on the issuance of organized securities. 7.1.3.Additional shares may be placed by the Society only within the number of shares specified in the published Charter of the Society. 7.1.4.Decisions on increasing the authorized capital of the Society by increasing the nominal value of shares and on making relevant amendments to this Charter of the Society shall be adopted unanimously by the Supervisory Board of the Society. If the Supervisory Board fails to reach a unanimous decision on these issues, such a decision shall be considered and approved by the general meeting of shareholders of the Society in accordance with the procedure established by this Charter and the legislation. 7.1.5. The decision on increasing the authorized capital of the Society by placing additional shares shall specify the number of additional ordinary shares and preferred shares to be placed, the terms and conditions of their placement, including the terms of placement of additional shares of the Society for shareholders who have the right to preferential purchase of the shares being placed in accordance with the legislation and this Charter. The increase in the authorized capital of the Society by placing additional shares shall be registered in the amount of the nominal value of the placed additional shares. In this case, the number of shares of a certain type declared, specified in the Society's Charter, must be reduced by the number of additional shares of this

aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo‘shimcha aksiyalarning soniga qisqartirilishi kerak. Jamiyatning ustav fondi ko‘paytirilayotganda Jamiyatning qo‘shimcha aksiyalariga uning o‘z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo‘shimcha aksiyalar bilan to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan hak to‘langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo‘yicha amalga oshiriladi. 7.1.6. jamiyatning ustav fondini qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirish jalb qilingan investitsiyalar, jamiyatning o‘z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin. Jamiyatning ustav fondini uning o‘z kapitali hisobidan qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirishda bu aksiyalar barcha aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo‘lsa, ayni o‘sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Jamiyatning ustav fondi ko‘paytirilishi natijasida ko‘paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta’minlanmaydigan bo‘lsa, Jamiyatning ustav fondini ko‘paytirishga yo‘l qo‘yilmaydi. 7.2. Ustav fondini kamaytirish: 7.2.1. jamiyatning ustav fondi aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo‘li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo‘li bilan kamaytirilishi mumkin. 7.2.2. mazkur Ustavga muvofiq Jamiyatning ustav fondini aksiyalarning bir qismini olish va bekor qilish yo‘li bilan kamaytirishga yo‘l qo‘yiladi. 7.2.3. sabablarini ko‘rsatgan holda Jamiyatning ustav fondini kamaytirish to‘g‘risidagi va Jamiyat Ustaviga tegishli o‘zgartirishlar kiritish hamda uni kamaytirish tartibini belgilash hakidagi qarorlar qonunchilikka muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan qaror qabul qilinadi.	type placed. When the Society's authorized capital is increased, additional shares of the Society are paid out of its equity, as well as dividends, the payment of which is decided on the payment of which in additional shares, the placement of such shares is carried out at the nominal value of the Society's shares. 7.1.6. The increase in the authorized capital of the Society by placing additional shares may be carried out in accordance with the procedure established by law at the expense of the attracted investments, the Society's own capital and accrued dividends. When increasing the authorized capital of the Society by placing additional shares at the expense of its own capital, these shares are distributed among all shareholders. In this case, the shares of the same type, regardless of the type of shares owned by each shareholder, are distributed in proportion to the number of shares owned by him. If the increase in the authorized capital of the Society does not ensure the compliance of the increase amount with the nominal value of one share, the increase in the authorized capital of the Society is not allowed. 7.2. Reduction of the authorized capital: 7.2.1. The authorized capital of the Society may be reduced by reducing the nominal value of shares or the total number of shares, including by acquiring shares by the Society with subsequent cancellation of part of the shares. 7.2.2. In accordance with this Charter, it is allowed to reduce the authorized capital of the Society by withdrawing and canceling part of the shares. 7.2.3. Decisions on reducing the authorized capital of the Society, indicating the reasons, and on making relevant amendments to the Charter of the Society and determining the procedure for its reduction shall be made by the general meeting of shareholders in accordance with the legislation.
VIII. JAMIYATNING AKSIYALARI. JAMIYATNING QIMMATLI QOG‘OZLARINI JOYLASHTIRISH VA SOTIB OLISH. AKSIYALARNI SOTIB OLISHNING IMTIYOZLI HUQUQI	**VIII. SHARES OF THE SOCIETY. PLACEMENT AND PURCHASE OF SECURITIES OF THE SOCIETY. PREFERENTIAL RIGHT TO PURCHASE SHARES**
8.1. Jamiyat oddiy nomlangan hujjatsiz aksiyasining nominal kiymati 196 so‘m 11 tiyin (bir yuz to‘qson olti so‘m o‘n bir tiyin). 8.2. Jamiyatning ustav kapitalini ko‘paytirish uchun e’lon qilingan oddiy nomlangan hujjatsiz aksiyalarning umumiy miqdori **15 000 000 000** (o‘n besh milliard) dona bo‘lib, nominal qiymati 196 so‘m 11 tiyin (bir yuz to‘qson olti so‘m o‘n bir tiyin). 8.3. Jamiyatning qimmatli qog‘ozlarini chiqarish, ro‘yxatdan o‘tkazish,	8.1. The nominal value of ordinary uncertified shares of the Society is 196 soums 11 tiyins (one hundred ninety-six soums and eleven tiyins). 8.2. The total number of ordinary uncertified shares declared to increase the authorized capital of the Society is **15 000 000 000** (fifteen billion) units, with a nominal value of 196 soums 11 tiyins (one hundred ninety-six soums and eleven tiyins). 8.3.The procedure for issuing, registering, placing and settling securities of

joylashtirish va ular bo‘yicha hisob-kitob qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va mazkur Ustav bilan belgilanadi.

8.4. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida taqiqlanmagan aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarishga haqli.

8.5. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi qoidalari va talablariga muvofiq aksiyalarni qog‘ozsiz (naqdsiz) shaklda chiqaradi.

8.6. Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish, qonunchilikda belgilangan tartibda qimmatli qog‘ozlar egalarining depo hisobvaraqlari holati bo‘yicha markaziy ro‘yxatchi vazifasini bajaruvchi O‘zbekiston Respublikasining Markaziy depozitariysi tomonidan amalga oshiriladi.

8.7. Aksiyadorga uning aksiyalarga bo‘lgan huquqlarini hisobga olish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi depozitariy O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda aksiya egasining yoki uning qonuniy vakilining talabiga ko‘ra ikki ish kuni ichida depo hisobvarag‘idan ko‘chirma berishi shart. Jamiyat aksiyalari va qimmatli qog‘ozlarning egasi depo hisobvarag‘idan ko‘chirmaga o‘ziga taalluqli bo‘lmagan axborot, shu jumladan boshqa qimmatli qog‘ozlarning egalari hamda ularga tegishli Jamiyat qimmatli qog‘ozlarining soni to‘g‘risidagi axborot kiritilishini talab qilish huquqiga ega emas.

8.8. Jamiyatning oddiy aksiyalarini bir shaxsdan boshqa shaxsga o‘tishi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi tartib, qoida va talablarga muvofiq amalga oshiriladi. Aksiyalarga bo‘lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag‘iga tegishli kirim yozuvi kiritilgan paytdan e’tiboran o‘tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda depozitariy tomonidan beriladigan depo hisobvarag‘idan ko‘chirma bilan tasdiqlanadi. Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularni oluvchiga ushbu qimmatli qog‘ozga bo‘lgan huquqlar o‘tgan paytdan e’tiboran o‘tadi.

8.9. Jamiyat aksiyadorlari reestrida ro‘yxatga olingan aksiyador o‘z aksiyalariga bo‘lgan huquqlarini hisobga olish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi depozitariyni o‘ziga oid ma’lumotlardagi o‘zgarishlar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilishi shart. Aksiyador o‘ziga oid ma’lumotlar o‘zgarganligi to‘g‘risidagi axborotni taqdim etmagan hollarda, buning oqibatida aksiyadorga yetkazilgan zarar uchun Jamiyat Markaziy depozitariy va aksiyadorning o‘z aksiyalariga bo‘lgan huquqlarini hisobga olish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi depozitariy javobgar bo‘lmaydi.

8.10. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Jamiyat imtiyozli aksiyalar chiqarishi mumkin, ularning jami qiymati Ustav fondining 25% (yigirma besh foizi) dan oshib ketishi mumkin emas.

8.11. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq korporativ

the Society is determined by the current legislation of the Republic of Uzbekistan and this Charter.

8.4.The Society has the right to issue shares, bonds and other securities not prohibited by the legislation of the Republic of Uzbekistan.

8.5.The Society issues shares in paperless (non-cash) form in accordance with the rules and requirements of the legislation of the Republic of Uzbekistan.

8.6.The formation of the register of shareholders of the Society is carried out by the Central Depository of the Republic of Uzbekistan, which acts as the central registrar of the status of deposit accounts of securities owners in accordance with the procedure established by law.

8.7.The depository providing services to the shareholder for accounting of his rights to shares is obliged to issue an extract from the depository account within two business days upon the request of the shareholder or his legal representative in accordance with the procedure established by the legislation of the Republic of Uzbekistan. The owner of the Society's shares and securities does not have the right to demand that the extract from the depository account include information that does not concern him, including information about the owners of other securities and the number of the Society's securities belonging to them.

8.8.The transfer of ordinary shares of the Society from one person to another shall be carried out in accordance with the procedure, rules and requirements of the legislation of the Republic of Uzbekistan. The rights to the shares shall be transferred to the recipient of the shares from the moment of the relevant entry in his deposit account and shall be confirmed by an extract from the deposit account issued by the depositary in the manner prescribed by law. The rights certified by the shares shall be transferred to the recipient from the moment of the transfer of rights to this security.

8.9.A shareholder registered in the register of shareholders of the Society is obliged to promptly notify the depository providing services for accounting of rights to his shares about changes in information about him. In cases where the shareholder fails to provide information about changes in information about him, the Central Depository of the Society and the depository providing services for accounting of rights to his shares shall not be liable for any damage caused to the shareholder as a result.

8.10.In accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan, the Society may issue preferred shares, the total value of which may not exceed 25% (twenty-five percent) of the Authorized Fund.

8.11.The Society has the right to issue and place corporate bonds and other securities in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan. In the event of placement by the Society of securities convertible into shares, the number

obligatsiyalarni va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarishga hamda joylashtirishga haqli. Aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog‘ozlar Jamiyat tomonidan joylashtirilgan taqdirda e’lon qilingan (qo‘shimcha) aksiyalarning soni ushbu qimmatli qog‘ozlarning muomalada bo‘lishi muddati mobaynida ayirboshlash uchun zarur miqdordan kam bo‘lmasligi lozim. Jamiyat o‘zi joylashtirgan qimmatli qog‘ozlar ayirboshlanishi mumkin bo‘lgan aksiyalar beradigan huquqlarni cheklash haqida ushbu qimmatli qog‘ozlar egalarining roziligisiz qaror qabul qilishga haqli emas.

8.12. Jamiyat obligatsiyalarni va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan boshqa qimmatli qog‘ozlarni joylashtirishga haqli. Obligatsiyalarni va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarishning tartibi, miqdori va shartlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qarori bilan belgilanadi.

8.13. Jamiyat Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarori va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda qo‘shimcha chiqariladigan Jamiyat aksiyalariga ochiq va yopiq obunani o‘tkazishga haqli.

8.14. Jamiyat aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlariga hak to‘lash qonunchilikda belgilangan tartibda pul va boshqa to‘lov vositalari, mol-mulk, shuningdek, pul bahosiga ega bo‘lgan huquqlar (jumladan mulkiy) bilan amalga oshiriladi. Qo‘shimcha aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarishda Jamiyat aksiyalariga xaq to‘lash shakli ularni joylashtirish to‘g‘risidagi qarori bilan belgilanadi.

8.15. Jamiyat o‘zi joylashtirgan aksiyalarni aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining joylashtirilgan aksiyalarning bir qismini olish va ushbu aksiyalarning umumiy sonini kamaytirish yo‘li bilan Jamiyat ustav fondini kamaytirish to‘g‘risidagi qaroriga ko‘ra, shuningdek, ularni keyinchalik belgilangan tartibda qayta sotish maqsadida Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga muvofiq olishga haqli. Aksiyalarni olish vaqtida ularga haq to‘lash pul mablag‘lari bilan, shuningdek, boshqa to‘lov vositalari, mol-mulk, shuningdek, pul qiymatida ifodalanadigan huquqlar (jumladan mulkiy) bilan amalga oshiriladi. Aksiyalarga haq to‘lash shakli aksiyalarni qo‘lga kiritish to‘g‘risidagi qaror bilan belgilanadi. Jamiyat aksiyalarini qo‘lga kiritish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartib va qo‘yilgan cheklovlar hisobga olinib amalga oshiriladi.

21.1. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan reglamentga muvofiq olib boriladi. 21.2. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini olib borish Reglamentida ma’ruzalar va tanaffuslarning davomiyligi va tartibi, masalalarni muhokama qilish tartibi, masalalar va ma’ruzachilarga qo‘yiladigan talablar, ovoz berishni amalga oshirish va uning natijalarini e’lon qilish tartibi nazarda tutiladi. Agar umumiy yig‘ilish boshlanishida aksiyadorlarda reglament bo‘yicha qo‘shimcha takliflar yuzaga kelmasa, umumiy yig‘ilishni olib borish reglamentini tasdiqlash masalasi yuzasidan ovoz berish o‘tkazilmaydi. Agar aksiyadorlarda reglament bo‘yicha qo‘shimcha takliflar yuzaga kelsa, bunday masalalar bo‘yicha qo‘l ko‘tarib ovoz berish o‘tkaziladi. Sanoq komissiyasi ovozlarni hisoblaydi va qaror oddiy ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilingan hisoblanadi. 21.3. Yig‘ilish jarayonida yuzaga keladigan joriy masalalarni umumiy yig‘ilish raisi yakkabosh tartibda, muhokama etilayotgan masala bo‘yicha ajratilgan vaqt doirasida har bir ishtirokchi aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ma’ruza qilishga haqli degan bosh tamoyildan kelib chiqib hal qiladi. 21.4. Kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishda ishtirok etishni istovchilar aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining kotibiga muhokama etiladigan masalani ko‘rsatib yozma ariza topshiradi. 21.5. Kun tartibidagi barcha masalalar muhokama qilinib, aksiyadorlar ovoz berish natijalaridan xabardor qilinganidan so‘ng yig‘ilish raisi aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini yopiq deb e’lon qiladi.	21.1. The general meeting of shareholders shall be held in accordance with the regulations approved by the general meeting of shareholders. 21.2.The Regulation for the Conduct of the General Meeting of Shareholders shall stipulate the duration and procedure of reports and breaks, the procedure for discussing issues, requirements for issues and speakers, the procedure for conducting voting and announcing its results. If at the beginning of the general meeting the shareholders do not have additional proposals on the regulations, a vote on the issue of approving the regulations for the conduct of the general meeting shall not be held. If the shareholders have additional proposals on the regulations, a vote on such issues shall be held by show of hands. The counting commission shall count the votes and the decision shall be considered adopted by a simple majority. 21.3. Current issues arising during the meeting shall be resolved by the chairman of the general meeting individually, based on the general principle that each participant has the right to make a statement at the general meeting of shareholders within the time allotted for the issue under discussion. 21.4. Those wishing to participate in the discussion of issues of the agenda shall submit a written application to the secretary of the general meeting of shareholders indicating the issue to be discussed. 21.5. After all issues on the agenda have been discussed and shareholders have been informed of the voting results, the Chairman of the meeting declares the general meeting of shareholders closed.
XXII. AKSIYADORLAR UMUMIY YIG‘ILISHINING BAYONNOMASI	**XXII. MINUTES OF THE GENERAL MEETING OF SHAREHOLDERS**
22.1. Umumiy yig‘ilish kotibi: 22.1.1. aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining olib borilishini yozib boradi; 22.1.2. aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining bayonnomasini rus yoki o‘zbek tilida ikki nusxada tuzadi. 22.2. Umumiy yig‘ilish kotibi, umumiy yig‘ilish borishining stenografik hisobotini tuzish uchun stenografistlardan foydalanishi mumkin. Bunday stenografik hisobotdan yig‘ilish kotibi umumiy yig‘ilish bayonnomasini tayyorlash uchun foydalanadi. 22.3. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining bayonnomasida quyidagilar ko‘rsatiladi: 22.3.1. aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilgan sana, vaqt va joy;	22.1.Secretary of the General Meeting: 22.1.1.records the proceedings of the general meeting of shareholders; 22.1.2.draws up the Minutes of the general meeting of shareholders in two copies in Russian or Uzbek. 22.2.The secretary of the general meeting may use stenographers to prepare a stenographic report of the proceedings of the general meeting. Such stenographic report shall be used by the secretary of the meeting to prepare Minutes of the general meeting. 22.3.The Minutes of the general meeting of shareholders shall indicate: 22.3.1.date, time and place of the general meeting of shareholders; 22.3.2.the total number of votes held by shareholders who own voting shares

22.3.2. jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlari ega boʻlgan ovozlarning umumiy soni; 22.3.3. umumiy yigʻilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega boʻlgan ovozlarning soni; 22.3.4. umumiy yigʻilishning raisi (rayosati) va kotibining familiyasi, ismi-sharifi va lavozimi; 22.3.5. aksiyadorlarning umumiy yigʻilishining kun tartibi; 22.3.6. ma'ruzalarning asosiy qoidalari, ovozga qoʻyilgan masalalar hamda ular yuzasidan oʻtkazilgan ovoz berish yakunlari, yigʻilish qabul qilgan qarorlar. 22.4. Umumiy yigʻilish bayonnomasi yigʻilish raisi va kotibi tomonidan imzolanadi. Yigʻilish raisi va/yoki kotibi aksiyadorlarning istalgan umumiy yigʻilishi bayonnomalarining nusxalarini va ulardan koʻchirmalarni tasdiqlashga haqli. 22.5. Umumiy yigʻilish bayonnomasi aksiyadorlarning umumiy yigʻilishi yopilganidan soʻng 10 (un) kundan kechiktirmasdan tuziladi. 22.6. Ovoz berish yakunlari boʻyicha sanoq komissiyasi ovoz berish yakunlari toʻgʻrisida bayonnoma tuzadi va sanoq komissiyasining a'zolari tomonidan imzolanadi. Ovoz berish yakunlari toʻgʻrisidagi bayonnomaga aksiyadorlar umumiy yigʻilishining, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib oʻtkaziladigan yigʻilish kvorumining mavjudligi toʻgʻrisidagi ma'lumotlar kiritiladi. 22.7. Ovoz berish yakunlari toʻgʻrisidagi bayonnoma aksiyadorlarning umumiy yigʻilishining bayonnomasiga qoʻshib qoʻyilishi lozim. 22.8. Ovoz berish yakunlari bayonnomasi tuzilib, aksiyadorlar umumiy yigʻilishi bayonnomasi imzolangandan soʻng qogʻoz yoki elektron tashuvchidagi ovoz berish byulletenlari, umumiy yigʻilishni oʻtkazish bilan bogʻliq hujjatlar sanoq komissiyasi tomonidan muhrlanadi va jamiyat arxiviga saqlash uchun topshiriladi.	of the Society; 22.3.3. the number of votes held by shareholders participating in the general meeting; 22.3.4. surname, first name and position of the Chairman (presidium) and secretary of the general meeting; 22.3.5.agenda of the general meeting of shareholders; 22.3.6.the main provisions of the reports, the issues put to the vote and the results of the voting on them, and the decisions adopted by the meeting. 22.4.The Minutes of the general meeting shall be signed by the Chairman and secretary of the meeting. The Chairman and/or secretary of the meeting shall have the right to certify copies of Minutes of any general meeting of shareholders and extracts therefrom. 22.5. The Minutes of the General Meeting shall be drawn up no later than ten (10) days after the closing of the General Meeting of Shareholders. 22.6. The counting commission shall draw up a report on the results of the voting, which shall be signed by the members of the counting commission. The report on the results of the voting shall include information on the presence of a quorum at the general meeting of shareholders, including at the meeting held remotely using information and communication technologies. 22.7. The Minutes of the general meeting of shareholders must be attached to Minutes of the general meeting of shareholders. 22.8. After the Minutes of the general meeting of shareholders are drawn up and Minutes of the general meeting of shareholders are signed, the voting ballots on paper or electronic media, documents related to the holding of the general meeting are sealed by the counting commission and submitted to the Society's archives for storage.
XXIII. JAMIYATNING KUZATUV KENGASHI	**XXIII. SUPERVISORY BOARD OF THE SOCIETY**
23.1. Jamiyatning Kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, qonunchilik va mazkur Ustav bilan aksiyadorlar umumiy yigʻilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno. 23.2. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi: 23.2.1. jamiyatning ustuvor yoʻnalishlarini belgilash; 23.2.2. aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yigʻilishlarini chaqirish, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno; 23.2.3. aksiyadorlar umumiy yigʻilishining kun tartibini tayyorlash; 23.2.4. aksiyadorlarning umumiy yigʻilishi oʻtkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;	23.1.The Supervisory Board of the Society exercises general management of the Society's activities, with the exception of resolving issues that are included in the scope of authority of the general meeting of shareholders by law and this Charter. 23.2.The scope of authority of the Supervisory Board of the Society includes: 23.2.1.to define the priorities of society; 23.2.2.to convene annual and extraordinary general meetings of shareholders, except as otherwise provided for by law; 23.2.3.to prepare the agenda for the general meeting of shareholders; 23.2.4. to determine the date, time and place of the general meeting of

23.2.5. aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash; 23.2.6. amaldagi qonunchilik va mazkur Ustavda nazarda tutilgan masalalarni, jumladan, Jamiyat Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda Jamiyat Ustavini yangi tahrirda tasdiqlash masalalarini aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi hal qilishi uchun kiritish; 23.2.7. mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish; 23.2.8. jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishida tasdiqlash uchun Jamiyatning sanoq komissiyasini miqdoriy va shaxsiy tarkibi bo‘yicha takliflarni tasdiqlash; 23.2.9. korporativ maslahatchini tayinlash; 23.2.10. ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, ichki audit xizmati xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish, shuningdek har chorakda ichki va tashqi audit xizmatini ichki nazorat tizimining samaradorligi to'g'risidagi hisobotlarini eshitib borish. 23.2.11. Xatarlarni boshqarish siyosati va xatarlarni boshqarish va ichki nazorat tizimining o'zaro ta'sir siyosatini va xatarlarni boshqarish va ichki nazorat tizimidagi asosiy hujjatlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash. 23.2.12. Xatarlarni boshqarish va ichki nazorat tizimlarining ishlashini, shuningdek ularning korxona strategiyasi, maqsadlari va faoliyati bilan integratsiyasini nazorat qilish. 23.2.13. dividend miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish; 23.2.14. jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish; 23.2.15. jamiyatning sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarini tashkil etish va ularni tugatish; 23.2.16. jamiyatning filiallarini tashkil etish/tugatish va vakolatxonalarini ochish/yopish; 23.2.17. amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish; 23.2.18. amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish; 23.2.19. jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog‘liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish; 23.2.20. jamiyat biznes-rejasi bajarilishi to‘g‘risida Jamiyat ijroiya organi	shareholders; 23.2.5.to determine the date for the formation of the register of shareholders of the Society for notification of the holding of a general meeting of shareholders; 23.2.6.to submit to the general meeting of shareholders for resolution the issues provided for by the current legislation and this Charter, including amendments and additions to the Charter of the Society and approval of the Charter of the Society in a new edition; 23.2.7.to organize the determination of the market value of property; 23.2.8.approval of proposals for the quantitative and personal composition of the Society's counting commission for approval at the general meeting of shareholders of the Society; 23.2.9.to appointe a corporate advisor; 23.2.10. to establish the internal audit service and appoint its employees, to conduct certification of the internal audit service staff, as well as to hear quarterly reports from the internal and external audit services on the effectiveness of the internal control system.. 23.2.11.to review and approve the risk management policy and the interaction policy of the risk management and internal control system and the main documents in the risk management and internal control system. 23.2.12. to monitor the operation of risk management and internal control systems, as well as their integration with the company’s strategy, objectives, and activities. 23.2.13. to make recommendations on the amount of dividends, the form and procedure for their payment; 23.2.14. to use the reserve fund and other funds of the Society; 23.2.15. to establish and liquidate of subsidiary and subordinate economic entities of the Society; 23.2.16. to establish/liquidate branches of the Society and open/close representative offices; 23.2.17. to make decisions on the conclusion of major transactions in cases provided for by applicable law; 23.2.18. to make decisions on concluding transactions with affiliated persons in cases provided for by applicable law; 23.2.19. to conclude transactions related to the Society's participation in commercial and non-commercial organizations in accordance with the procedure

rahbari (boshqaruvi raisi)ning hisobotini har chorakda tinglash va tasdiqlash; 23.2.21. jamiyatning ustav fondini koʻpaytirish, shuningdek jamiyat ustaviga jamiyatning ustav fondini koʻpaytirish va e'lon qilingan kamaytirilgan aksiyalar bilan bogʻliq oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish; 23.2.22. qonunchilikka muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli kogʻozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash; 23.2.23. jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish toʻgʻrisida qaror qabul qilish; 23.2.24. qimmatli qogʻozlarning hosilalarini chiqarish toʻgʻrisida qaror qabul qilish; 23.2.25. jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish toʻgʻrisida qaror qabul qilish; 23.2.26. jamiyat ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash), rahbarning vakolatlarini muddatdan ilgari tugatish; 23.2.27. Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini, shuningdek unga oʻzgartirish kiritish boʻyicha masalani dastlabki tarzda ma'qullash; 23.2.28. Ijroiya organiga toʻlanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorlarini, shuningdek ularga oʻzgartirish kiritish boʻyicha masalani dastlabki tarzda ma'qullash; 23.2.29. jamiyat yillik biznes-rejasini tasdiqlash. Bunda jamiyatning kelgusi yilga moʻljallangan biznes-rejasi Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim. 23.2.30. auditorlik tekshiruvini ўtkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga tўlanadigan eng кўp mikdori belgilash va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor қilish) tўғrisida қaror қabul қilish; 23.2.31. aksiyadorlarning umumiy yigʻilishi va qonunchilikda belgilangan chegaralarda ma'lumotlarni aksiyadorlik jamiyatining korporativ veb-saytiga joylashtirish orqali xayriya (homiylik) yoki tekin yordam koʻrsatish (olish) va qarorlar qabul qilish shartlari tartibini belgilash; 23.2.32. mazkur Ustav va amaldagi qonunchilik bilan Kuzatuv kengashi vakolatiga kiritilgan boshqa masalalarni hal qilish; 23.2.33. yangi koʻchmas mulkni sotib olish yoki qurish, tadbirkorlik sub'ektlarining ustav kapitalidagi ulushlarini olish va asosiy faoliyat turiga mos	established by law; 23.2.20. to review and approve, on a quarterly basis, the report of the head of the Society's executive body (Chairman of the Management Board) on the implementation of the Society's business plan; 23.2.21. to increase the authorized capital of the Society, as well as make amendments and additions to the charter of the Society in connection with the increase in the authorized capital of the Society and the declared reduced shares; 23.2.22. to determine the price of placement of shares (issuance of organized securities trading) in accordance with the legislation; 23.2.23. adoption of a decision by the Society on the issuance of corporate bonds, including bonds convertible into shares; 23.2.24. to make decisions on the issuance of securities derivatives; 23.2.25. to make a decision on the repurchase of the Society's corporate bonds; 23.2.26. to establish the Executive Body of the Society, elect (appoint) its head, and terminate the powers of the head ahead of schedule; 23.2.27. to preliminarily approve the organizational structure of the Company, as well as any matters regarding its amendments; 23.2.28. to preliminarily approve the remuneration and maximum amounts payable to the executive body, as well as the issue of amending them; 23.2.29. to approve the Society's annual business plan. In this case, the Society's business plan for the next year must be approved at a meeting of the Society's Supervisory Board no later than December 1 of the current year. 23.2.30.to conduct an audit (except for a mandatory audit), determining the audit organization, determine the maximum amount to be paid for its services, and make a decision on concluding a contract with it (cancellation of the contract); 23.2.31. to determine the procedure for providing (receiving) charity (sponsorship) or free assistance and the conditions for making decisions by posting information on the corporate website of the joint-stock company at the general meeting of shareholders and within the limits established by law; 23.2.32. to resolve other issues included in the competence of the Supervisory Board by this Charter and current legislation; 23.2.33. to accept a loan for the purchase or construction of new real estate, the acquisition of shares in the authorized capital of business entities, and the implementation of additional types of activities corresponding to the main type of

keladigan qўshimcha faoliyat turlarini amalga oshirish to‘g‘risidagi qapop qabul qilish; 23.2.34. jamiyat aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiga kiruvchi korxonalarning mulkini begonalashtirish, sotish shakllari va mexanizmlari, ustav kapitaliga investitsiyalar kiritish to‘g‘risida uchinchi shaxslar tomonidan shartnomalar (bitimlar, shartnomalar, memorandumlar va boshqalar) tuzish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish; 23.2.35. jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a’zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin. 23.3. Kuzatuv kengashi Jamiyat aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishlarida korporativ boshqaruvning qonunchilikda belgilangan me’yorlariga rioya etilishi yuzasidan hisob beradi. 23.4. Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun jamiyatning ijroiya organiga o‘tkazilishi mumkin emas. 23.5. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga ko‘ra Jamiyat kuzatuv kengashining a’zolariga ular o‘z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to‘lanishi va/yoki kuzatuv kengashining a’zosi vazifalarini bajarish bilan bog‘liq xarajatlarining o‘rni qoplanishi mumkin. Bunday haq va to‘lovlarning miqdorlari Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi qarorida belgilanadi.	activity; 23.2.34. to make decisions on the forms and mechanisms of alienation and sale of the property of the joint-stock company and its constituent enterprises, on the conclusion of agreements (agreements, contracts, memoranda, etc.) by third parties on investments in the authorized capital; 23.2.35. to have unrestricted access to any documents related to the activities of the Company’s executive body and to obtain such documents from the executive body in order to fulfill the duties assigned to the Supervisory Board. The Society's Supervisory Board and its members may use the received documents only for official purposes. 23.3.The Supervisory Board reports to the Society's annual general meetings of shareholders on compliance with the standards of corporate governance established by law. 23.4.Issues within the scope of authority of the Supervisory Board cannot be transferred to the Executive Body of the Society for resolution. 23.5.By decision of the General Meeting of Shareholders, members of the Supervisory Board of the Society may be paid a fee for the period during which they perform their duties and/or reimbursed for expenses related to the performance of the duties of a member of the Supervisory Board. The amounts of such fees and payments shall be determined by the decision of the General Meeting of Shareholders of the Society.
XXIV. JAMIYAT KUZATUV KENGASHINING A’ZOLARINI SAYLASH	**XXIV. ELECTION OF MEMBERS OF THE SUPERVISORY BOARD OF THE SOCIETY**
24.1. Jamiyat Kuzatuv kengashi 7 (yetti) a’zodan iborat, ulardan 2 tasi mustaqil a’zolardir. Kuzatuv kengashining miqdoriy tarkibi Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi qaroriga asosan o‘zgartirilishi mumkin. 24.2. Jamiyat Kuzatuv kengashining a’zolari qonunchilikda va Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan tartibda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi. 24.3. Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslar cheklanmagan marta qayta saylanishi mumkin, mustaqil a’zolar bundan mustasno. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qaroriga asosan Jamiyat Kuzatuv	24.1. The Supervisory Board of the Society shall consist of 7 (seven) members, 2 of whom shall be independent members. The quantitative composition of the Supervisory Board may be changed by decision of the General Meeting of Shareholders of the Society. 24.2.Members of the Supervisory Board of the Society are elected by the general meeting of shareholders for a term of three years in accordance with the procedure stipulated by the legislation and the Charter of the Society. 24.3.Persons elected to the Supervisory Board of the Society may be re-elected an unlimited number of times, with the exception of independent members. The powers of any member (members) of the Supervisory Board of the

kengashining har qaysi a’zosi (a’zolari) vakolatlari muddatdan oldin tugatilishi mumkin. 24.4. Ayni shu jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlayotgan shaxslar jamiyatning Kuzatuv kengashi a’zosi bo‘lishi mumkin emas. 24.5. Kuzatuv kengashi a’zolari Kuzatuv kengashi tomonidan u yoki bu qarorlar qabul qilishga ta’sir qilganlik uchun mukofotni bevosita yoki bilvosita olishga haqli emas. 24.6. Kuzatuv kengashi a’zolari shaxsiy boylik orttirish maqsadida Jamiyat imkoniyatlaridan (mulkiy yoki nomulkiy xuquqlar, xo‘jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlar, jamiyat faoliyati va rejalari to‘g‘risida axborotdan) foydalanishga haqli emas. 24.7. Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo‘yiladigan talablar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan qarorda belgilab qo‘yilishi mumkin. 24.8. Jamiyatning Kuzatuv kengashi a’zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo‘lgan mustaqil a’zolar va boshqa a’zolar soniga ko‘paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to‘liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o‘rtasida taqsimlashga haqli. Eng ko‘p ovoz to‘plagan nomzodlar jamiyat Kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida saylangan kuzatuv kengashi a’zosi mazkur yig‘ilish bayonnomasida qaysi aksiyadorning vakili ekanligi yoki kuzatuv kengashining qaysi a’zosi mustaqil a’zo ekanligi ko‘rsatilishi kerak.	Society may be terminated early by a decision of the General Meeting of Shareholders. 24.4.Persons working under an employment contract in the same company cannot be members of the Supervisory Board of the Society. 24.5.Members of the Supervisory Board are not entitled to receive any remuneration, directly or indirectly, for influencing the adoption of certain decisions by the Supervisory Board. 24.6.Members of the Supervisory Board are not entitled to use the Society's opportunities (property or non-property rights, opportunities in the field of economic activity, information about the Society's activities and plans) for the purpose of personal gain. 24.7.Requirements for persons elected to the Supervisory Board of a company may be established by a resolution approved by the general meeting of shareholders. 24.8.The election of members of the Supervisory Board of the Society shall be carried out by cumulative voting. In the case of cumulative voting, the number of votes belonging to each shareholder shall be multiplied by the number of independent members and other members to be elected to the Supervisory Board of the Society, and the shareholder shall have the right to give the votes thus obtained in full to one candidate or to distribute them between two or more candidates. The candidates who have received the largest number of votes shall be considered elected to the Supervisory Board of the Society. A member of the Supervisory Board elected at the general meeting of shareholders must be indicated in Minutes of that meeting as either the representative of a specific shareholder or as an independent member of the Supervisory Board.
XXV. JAMIYAT KUZATUV KENGASHINING RAISI VA KOTIBI	**XXV. CHAIRMAN AND SECRETARY OF THE SUPERVISORY BOARD OF THE SOCIETY**
25.1. Kuzatuv kengashi a’zolari saylangan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilganidan so‘ng o‘tkaziladigan kuzatuv kengashining birinchi majlisida ushbu kengash tarkibidan kuzatuv kengashi a’zolari tomonidan ko‘pchilik ovoz bilan jamiyat kuzatuv kengashining raisini saylaydilar. 25.2. Jamiyatning kuzatuv kengashi o‘z raisini kuzatuv kengashi	25.1. At the first meeting of the Supervisory Board held after the general meeting of shareholders, the members of the Supervisory Board shall elect the Chairman of the Supervisory Board from among the members of this Board by a majority vote. 25.2. The Supervisory Board of The Society has the right to re-elect its

a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli. 25.3. Kuzatuv kengashi raisi: 25.3.1. kuzatuv kengashi ishini tashkillashtiradi; 25.3.2. kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi; 25.3.3. kuzatuv kengashi majlislarida bayonnoma yuritilishini tashkillashtiradi; 25.3.4. jamiyat nomidan ijro etuvchi organ rahbarini (boshqaruv raisini) yollash to'g'risida mehnat shartnomasini tuzadi, agar kuzatuv kengashi bunday vakolatlarni boshqa shaxsga bermagan bo'lsa. 25.4. Kuzatuv kengashi qaror qabul qilishda Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda, jamiyat Kuzatuv kengashi raisi hal qiluvchi ovoz huquqiga ega. 25.5. Kuzatuv kengashi raisi bo'lmagan taqdirda, uning vazifalarini kuzatuv kengashi a'zolaridan biri bajaradi.	Chairman by a majority vote of the total number of Supervisory Board members. 25.3. Chairman of the Supervisory Board: 25.3.1. organizes the work of the Supervisory Board; 25.3.2. convenes and presides over meetings of the Supervisory Board;; 25.3.3. organizes the keeping of minutes at the meetings of the Supervisory Board; 25.3.4. enters into an employment contract on behalf of the Society with the head of the Executive Body (Chairman of the Management Board), unless the Supervisory Board has delegated such authority to another person. 25.4. In the event of a tie in voting within the Supervisory Board, the Chairman of the Company's Supervisory Board shall have the casting vote. 25.5. In the absence of the Chairman of the Board , his duties shall be performed by one of the members of the Supervisory Board.
XXVI. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI MAJLISLARI	**XXVI. MEETINGS OF THE SUPERVISORY BOARD OF THE SOCIETY**
26.1. Kuzatuv kengashi majlislari zaruriyatga qarab o'tkaziladi. 26.2. Kuzatuv kengashi majlislari Kuzatuv kengashi raisi tomonidan chaqiriladi: 26.2.1. o'z tashabbusiga ko'ra; 26.2.2. kuzatuv kengashi a'zosining talabiga ko'ra; 26.2.3. jamiyat ijroiya organi rahbari (boshqaruv raisi)ning talabiga ko'ra. 26.3. Kuzatuv kengashi majlisini chaqirish tashabbuskori Kuzatuv kengashi a'zolariga xabarnoma yuborish yo'li bilan ularni majlis chaqirilishi to'g'risida xabardor qilishi kerak. 26.4. Kuzatuv kengashi majlisini chaqirish to'g'risida xabarnoma quyidagilardan iborat bo'lishi kerak: 26.4.1. kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish sanasi, vaqti va joyi; 26.4.2. majlisning kun tartibi. 26.5. Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bunday xabarnoma olgan kundan so'ng 10 (o'n) kun ichida Kuzatuv kengashi raisiga kun tartibiga kiritish uchun qo'shimcha savollar ro'yxatini taqdim qilishga haqli. 26.6. Kuzatuv kengashi raisi barcha tushgan takliflarni (agar ular bo'lsa) ko'rib chiqadi va zarur bo'lgan taqdirda, majlisning yakuniy kun tartibini tayyorlaydi va uni ijro etuvchi organga Kuzatuv kengashi a'zolariga berish uchun yuboradi.	26.1.Supervisory Board meetings are held as needed. 26.2.Meetings of the Supervisory Board are convened by the Chairman of the Supervisory Board: 26.2.1.on his own initiative; 26.2.2.at the request of a member of the Supervisory Board; 26.2.3.at the request of the Head of the Executive Body of the Society (Chairman of the Board). 26.3.The initiator of convening a meeting of the Supervisory Board must notify the members of the Supervisory Board of the convening of the meeting by sending them a notification. 26.4. The notice of convening a meeting of the Supervisory Board must contain the following: 26.4.1. the date, time, and location of the Supervisory Board meeting; 26.4.2. the meeting agenda. 26.5. Each member of the Supervisory Board has the right to submit a list of additional questions to the Chairman of the Supervisory Board for inclusion in the agenda within 10 (ten) days after receiving such notification. 26.6. The Chairman of the Supervisory Board will consider all received proposals (if any) and, if necessary, prepare the final agenda of the meeting and send it to the Executive Body for distribution to the members of the Supervisory

26.7. Kuzatuv kengashi a’zosi tomonidan kiritilgan masala Kuzatuv kengashi majlisi kun tartibiga kiritilishi lozim, quyidagi hollardan tashqari: 26.7.1. kuzatuv kengashi a’zosi mazkur Ustavning 26.5-bandida belgilangan muddatga rioya qilmaganda; 26.7.2. takliflar qonunchilik va/yoki jamiyat Ustavi talablariga muvofiq bo‘lmagan taqdirda. 26.8. Kuzatuv kengashi majlisida faqat kun tartibida ko‘rsatilgan masalalar ko‘rib chiqiladi. Biroq, Jamiyat kuzatuv kengashining barcha hozir bo‘lgan a’zolarining bir ovozdan qabul qilingan qaroriga asosan Kuzatuv kengashi qo‘shimcha savollarni kun tartibiga kiritishi va ularni ko‘rib chiqishi mumkin. 26.9. Kuzatuv kengashi majlislari videokonferensiya aloqa tizimi yoki majlisda shaxsan ishtirok etish orqali o‘tkazilishi mumkin. Kuzatuv kengashining har qaysi a’zosi, agar u yig‘ilishda jismonan ishtirok eta olmasa, videokonferensiya aloqa tizimi orqali ishtirok etishi va ovoz berishi mumkin. Shu bilan birga, ijro etuvchi organ bunday so‘rov kelib tushganda ushbu aloqani tashkillashtirish uchun barcha kerakli choralarni ko‘rishi kerak. Agar majlisda ishtirok etayotgan Kuzatuv kengashining har qaysi a’zosi bilan videokonferensiya aloqa uzilib qolsa, u qayta tiklanguga qadar yig‘ilish to‘xtatilib turiladi. 26.10. Kuzatuv kengashi qarorlari sirtdan ovoz berish (so‘rov yo‘li) orqali Kuzatuv kengashining barcha a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin. Bunday qarorlar Kuzatuv kengashi tomonidan yozma rezolyusiya bilan rasmiylashtiriladi. Bunday yozma rezolyusiyalarga mazkur Ustavning Kuzatuv kengashi majlisi kvorumi va ovoz berish tartibiga taalluqli qoidalari qo‘llaniladi. Yozma shaklda rasmiylashtirilgan va Kuzatuv kengashining shu paytda xaqiqiy bo‘lgan a’zolari tomonidan imzolangan yozma rezolyusiya (qabul qilingan qarorni so‘zsiz ma’qullaydigan) Kuzatuv kengashi majlisida tegishli tarzda qabul qilingan rezolyusiya kabi kuchga ega bo‘ladi. Bunday yozma rezolyusiya adekvat shakldagi bitta yoki bir nechta hujjatlarda bo‘lishi mumkin va ulardan har biri Kuzatuv kengashining bitta yoki undan ko‘proq a’zolari tomonidan imzolanadi. 26.11. Kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o‘tkazilganidan so‘ng 10 (o‘n) kundan kechiktirmay tuziladi. 26.12. Majlisi bayonnomasida quyidagilar ko‘rsatiladi: 26.12.1. majlis o‘tkazilgan sana, vaqt va joy;	Board. 26.7. An issue introduced by a member of the Supervisory Board must be included in the agenda of the Supervisory Board meeting, except in the following cases: 26.7.1. if a member of the Supervisory Board fails to comply with the deadline specified in clause 26.5 of this Charter; 26.7.2. in case of non-compliance with the requirements of the legislation and/or the Charter of the Society. 26.8. Supervisory Board meeting shall consider only the issues specified in the agenda. However, the Supervisory Board may include additional issues on the agenda and consider them by unanimous decision of all members of the Supervisory Board present. 26.9. the meetings of the Supervisory Board may be held via videoconference or in person. Any member of the Supervisory Board, if he or she is unable to attend the meeting in person, may participate and vote via videoconference. At the same time, the Executive Body shall take all necessary measures to organize such communication upon receipt of such a request. If the videoconference connection with any member of the Supervisory Board participating in the meeting is interrupted, the meeting shall be suspended until it is restored. 26.10. the decisions of the Supervisory Board may be adopted unanimously by all members of the Supervisory Board by absentee voting (by poll). Such decisions shall be formalized by the Supervisory Board in a written resolution. The provisions of this Charter relating to the quorum and voting procedure for the Supervisory Board meeting shall apply to such written resolutions. A written resolution formalized in writing and signed by the members of the Supervisory Board who are present at the time shall have the same force (unconditionally approving the adopted decision) as a resolution duly adopted at a meeting of the Supervisory Board. Such a written resolution may be contained in one or more documents of adequate form, each of which shall be signed by one or more members of the Supervisory Board. 26.11.The Minutes of the Supervisory Board meeting shall be drawn up no later than 10 (ten) days after the meeting. 26.12. The meeting report states the following: 26.12.1. the date, time, and location of the meeting held;

26.12.2. majlisda hozir boʻlgan shaxslar, shu jumladan masofadan turib axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda; 26.12.3. majlisning kun tartibi; 26.12.4. ovoz berishga qoʻyilgan masalalar, ular yuzasidan oʻtkazilgan ovoz berish yakunlari; 26.12.5. qabul qilingan qarorlar. 26.13. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi toʻgʻri rasmiylashtirilishi uchun javobgar boʻladi. 26.14. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni jamiyatning ijroiya organiga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yigʻilishini chaqirish toʻgʻrisida qaror qabul qilgan taqdirda, mazkur qaror haqidagi axborot jamiyatning ijroiya organiga kuzatuv kengashining majlisi oʻtkaziladigan kuni topshiriladi.	26.12.2. persons present at the meeting, including remotely using information and communication technologies; 26.12.3. meeting agenda; 26.12.4. issues put to the vote, the results of the voting on them; 26.12.5. decisions made. 26.13. The Minutes of the Supervisory Board of the Society meeting are signed by the members of the Supervisory Board of the Society participating in the meeting, who are responsible for the correct execution of Minutes of the meeting. 26.14. The Minutes of the Supervisory Board of the Society meeting shall be submitted to the Executive Body of the Society for execution on the day of their signing. If the Supervisory Board adopts a decision to convene a general meeting of shareholders, information about this decision shall be submitted to the Executive Body of the Society on the day of the Supervisory Board meeting.
XXVII. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI MAJLISINING KVORUMI VA QARORLARNI QABUL QILISH	**XXVII. QUORUM AND DECISION-MAKING OF THE MEETING OF THE SUPERVISORY BOARD OF THE SOCIETY**
27.1. Kuzatuv kengashining majlisini oʻtkazish uchun kvorum jamiyat kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarning 75 (yetmish besh) foizdan kam boʻlmasligi kerak. 27.2. Kuzatuv kengashi a'zolarining soni 75% (yetmish besh foizdan) kam boʻlib qolgan taqdirda, jamiyat kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun navbatdan tashqari aksiyadorlarning umumiy yigʻilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yigʻilishini chaqirish toʻgʻrisida qaror qabul qilishga, shuningdek jamiyat ijroiya organi rahbarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir. 27.3. Kuzatuv kengashi majlislarida qarorlar Kuzatuv kengashining majlisda ishtirok etuvchi a'zolarining koʻpchilik ovozi bilan qabul qilinadi, Kuzatuv kengashi a'zolarining bir ovozdan qaror qabul qilinishi talab qilinadigan 23.2.-bandda koʻrsatilgan qarorlar bundan mustasno. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega boʻladi. 27.4. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng boʻlgan holatlarda hal qiluvchi ovoz huquqiga ega. 27.5. Kuzatuv kengashi a'zosi oʻz ovozini Kuzatuv kengashining boshqa	27.1. The quorum for holding a meeting of the Supervisory Board shall not be less than 75 (seventy-five) percent of the members elected to the Supervisory Board of the Society. 27.2.If the number of members of the Supervisory Board falls below 75% (seventy-five percent), the Society is obliged to convene an extraordinary general meeting of shareholders to elect a new composition of the Supervisory Board. The remaining members of the Supervisory Board have the right to decide on convening such an extraordinary general meeting of shareholders, as well as to appoint a temporary acting head of the Executive Body of the Society in the event of early termination of his powers. 27.3. Decisions at meetings of the Supervisory Board shall be made by a majority vote of the members of the Supervisory Board present at the meeting, with the exception of decisions specified in clause 23.2., where unanimous decision-making by the members of the Supervisory Board is required. When resolving issues at a meeting of the Society's Supervisory Board, each member of the Supervisory Board shall have one vote. 27.4. The Chairman of the Supervisory Board of the Society has the casting vote in cases where the votes of the Supervisory Board members are equal. 27.5. A member of the Supervisory Board is not allowed to delegate his/her

a’zosiga berishga yo‘l qo‘yilmaydi.	vote to another member of the Supervisory Board.
XXVIII. JAMIYATNING IJRO ETUVCHI ORGANI	**XXVIII. EXECUTIVE BODY OF THE SOCIETY**
28.1. Jamiyat joriy faoliyatiga rahbarlik qilish jamiyat boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. 28.2. Jamiyat boshqaruvi 7 (yetti) a’zodan iborat. 28.3. Boshqaruv Kuzatuv kengashi (Boshqaruv raisidan tashqari) tomonidan qonunchilik va jamiyat Ustavida belgilangan tartibda uch yil muddatga saylanadi. Boshqaruv raisi, uning birinchi o‘rinbosarlari va boshqaruv raisi o‘rinbosarlaridan iborat, qayta saylash holatlari esa- konkurs asosida tanlab olish natijalari hamda ularning amalga oshiriladigan vazifalar, ishlab chiqarish, marketing, moliya, xodimlar, loyihalar, rejalashtirish va shu kabi sohalarda malakaga egaligiga qarab tayinlanadi. Boshqaruv raisi etib tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs ketma-ket ikki muddatdan ortiq boshqaruv raisi bo‘lishi mumkin emas. 28.4. Jamiyat ijroiya organi va uning rahbarining vakolatlariga jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining yoki jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno. 28.5. Jamiyatning ijroiya organi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining va kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi. 28.6. Jamiyat boshqaruvi raisi quyidagi huquqlarga ega: 28.6.1. jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi, jamiyat nomidan bitimlar tuzadi, jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlaydi, shtatlarni tasdiqlaydi, jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi; 28.6.2. jamiyatni boshqarish va o‘z vakolatlari doirasida mustaqil qarorlarni qabul qilish; 28.6.3. jamiyat kundalik moliyaviy-xo‘jalik faoliyati, ishlab chiqarish, tashkiliy moliyaviy ishlarni boshqarish; 28.6.4. kontraktlar va shartnomalar, shu jumladan mehnat shartnomalarini tuzish; 28.6.5. jamiyat xodimlaridan mehnat shartnoma, ichki mehnat tartibi qoidalari va jamiyatda amalda bo‘lgan boshqa qoidalar va nizomlar bilan shartlangan ishni lozim darajada bajarishlarini talab qilish; 28.6.6. jamiyat xodimlari bilan mehnat va boshqa shartnomalarni tuzish va	28.1.The management of the current activities of the society is carried out by the society's management. 28.2. The Management Board of the Society consists of 7 (seven) members. 28.3. The Management Board of the Society is elected by the Supervisory Board (except for the Chairman of the Board) for a term of three years in accordance with the procedure established by law and the Society's Charter. It consists of the Chairman of the Board , his first deputies and deputy Chairman of the Board , and re-election is possible based on the results of competitive selection and their qualifications in the areas of tasks to be performed, production, marketing, finance, personnel, projects, planning, etc. A person appointed (re-appointed) as the Chairman of the Board may not be the Chairman of the Board for more than two consecutive terms. 28.4.The powers of the Executive Body of the Society and its head include all issues related to the management of the daily activities of the Society, with the exception of issues that are within the scope of authority of the general meeting of shareholders or the Supervisory Board of the Society. 28.5.The Executive Body of the Society organizes the implementation of the decisions of the general meeting of shareholders and the Supervisory Board. 28.6.The Chairman of the Management Board of the Society has the following rights: 28.6.1.acts on behalf of the Society without a power of attorney, including representing its interests, concluding transactions on behalf of the Society, appointing the head of a branch or representative office of the Society, approving staff, issuing orders and giving instructions that are mandatory for all employees of the Society; 28.6.2.manages society and makes independent decisions within their powers; 28.6.3. manages daily financial and economic activities of the society, production, organizational financial affairs; 28.6.4.concludes contracts and agreements, including employment contracts; 28.6.5.requires company employees to properly perform the work stipulated by the employment contract, internal labor regulations, and other rules and

tugatish huquqini boshqaga berish; 28.6.7. jamiyat xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzishda ular uchun xizmat va tijorat sirini tashkil qiluvchi ma’lumotlar hajmi va tarkibini belgilash; 28.6.8. jamiyat nomidan ishonchnomalar berish; 28.6.9. banklarda jamiyat hisob-kitob va boshqa raqamlarini ochish va yopish; 28.6.10. bitimlarni tuzish, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi va Kuzatuv kengashining mutlaq vakolatlari doirasiga kiritilgan bitimlar bundan mustasno; 28.6.11. jamiyat Ustavida shartlab o‘tilgan chegaralarda mulk va pul mablag‘larini tasarruf etish; 28.6.12. unga bo‘ysunadigan barcha xodimlar ijro etishi majbur bo‘lgan jamiyat faoliyati bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha buyruqlar va farmoyishlar chiqarish; 28.6.13. jamiyat xodimlari tomonidan mehnat intizomi buzilgan taqdirda, ularga intizomiy jazo choralarini qo‘llash, shuningdek ushbu vakolatlarni boshqa shaxsga berish; 28.6.14. jamiyat xodimlarini rag‘batlantirish; 28.6.15. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tasdiqlagan tashkiliy tuzilma asosida jamiyat shtat jadvalini tasdiqlash, malakali xodimlar bilan to‘ldirish. Bunda, xodimlar sonining umumiy miqdori doirasida shtatlar jadvaliga va xodimlar soniga o‘zgartirish kiritish huquqiga ega. Bunda o‘zgartirishlar Jamiyatning ish haqi fondi doirasida amalga oshirish; 28.6.16. bank hujjatlariga imzo chekish huquqiga ega shaxslar ro‘yxatini tasdiqlash; 28.6.17. jamiyat nomidan jamoa muzokaralarga kirishish va jamoa shartnomalarini tuzish; 28.6.18. uning vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar hal etilishini tarkibiy bo‘linmalar rahbarlariga topshirish; 28.6.19. Kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi tashkilotchisi va koordinatori bo‘lish, shu jumladan aksiyadorlarga umumiy yig‘ilish o‘tkazilishi to‘g‘risida xabarnomalarni tarqatish, barcha kerakli hujjatlarni tayyorlash va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishini tashkillashtirish bilan bog‘liq boshqa masalalarni hal etish; 28.6.20. jamiyat boshqaruvining tuzilmaviy bo‘linmalari to‘g‘risida nizomlarni tasdiqlash. 28.7. Jamiyat boshqaruv raisi quyidagilarga majbur:	regulations in force in the Society; 28.6.6.transfers the right to conclude and terminate labor and other contracts with employees of the Society; 28.6.7.determine the volume and content of information constituting service and commercial secrets for employees of the Society when concluding employment contracts with them; 28.6.8.to issue power of attorney on behalf of the Society; 28.6.9.to open and closing of company accounts and other accounts in banks; 28.6.10.to conclude transactions, except for transactions that fall within the exclusive competence of the general meeting of shareholders and the Supervisory Board; 28.6.11. to manage the Society’s property and funds within the limits specified in the Charter; 28.6.12. to issue orders and decrees on matters related to the activities of the Society, which all employees subordinate to him are obliged to execute; 28.6.13.in case of violation of labor discipline by employees of the Society, to apply disciplinary measures to them, as well as to delegate these powers to another person; 28.6.14.to encourage community workers; 28.6.15.to approve the Society’s staffing table based on the organizational structure approved by the general meeting of shareholders and to fill it with qualified personnel. In this case, the Society has the right to make changes to the staffing table and the number of employees within the total number of employees. In this case, changes are made within the scope of the Society's payroll fund; 28.6.16.to approve the list of persons authorized to sign bank documents; 28.6.17.to enter into collective negotiations and conclude collective agreements on behalf of the community; 28.6.18.to delegate the resolution of issues within its competence to the heads of structural divisions; 28.6.19. In coordination with the Supervisory Board, to act as the organizer and coordinator of the general meeting of shareholders, including distributing notices of the meeting to shareholders, preparing all necessary documents, and addressing other matters related to organizing the general meeting of shareholders; 28.6.20.to approve regulations on the structural divisions of the society's

28.7.1. o‘z vakolatlari doirasida jamiyatning uning samarali va barqaror ishlashini ta’minlagan holda faoliyatiga rahbarlik qilish, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi yoki Kuzatuv kengashining vakolati doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno; 28.7.2. aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va Kuzatuv kengashining qarorlari ijro etilishini tashkillashtirish; 28.7.3. jamiyat ishlab chiqarish birliklari, sexlari va boshqa tuzilmaviy bo‘linmalarining o‘zaro samarali ishlashini ta’minlash; 28.7.4. jamiyat shartnomaviy majburiyatlari bajarilishini, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan miqdorda foyda olishni ta’minlash; 28.7.5. jamiyat dasturlari va biznes rejalari ishlab chiqilishini boshqarish, ular bajarilishini tashkillashtirish va nazorat qilish; 28.7.6. jamiyat yillik biznes-rejasining bajarilishi to‘g‘risida hisobotni har chorakda kuzatuv kengashiga taqdim etish; 28.7.7. jamiyat faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilish; 28.7.8. jamiyat buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tashkil etish, ularni ishonchliligini ta’minlash, tegishli tashkilotlarga yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlarni o‘z vaqtida taqdim etish; 28.7.9. jamiyat moliyaviy-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi hujjatlarni Kuzatuv kengashining va auditorlik tashkilotining talablariga ko‘ra to‘siqlarsiz taqdim qilish; 28.7.10. tegishli tashkilotlarga davlat statistik hisobotlarni to‘liqligi va o‘z vaqtida taqdim qilinishini ta’minlash; 28.7.11. jamiyatning tijorat sirini tashkil qiluvchi axborotlarni oshkor qilmaslik, agar uning vazifalari doirasiga bunday axborotni uchinchi shaxslarga berish kirmasa; 28.7.12. jamiyat xodimlari tomonidan xizmat yoki tijorat sirini tashkil qiluvchi axborotni oshkor qilinmasligini ta’minlash; 28.7.13. jamiyatni malakali kadrlar bilan ta’minlash hamda xodimlarining bilimlari, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan yanada yaxshi foydalanish bo‘yicha choralarni ko‘rish; 28.7.14. mehnat va ishlab chiqarish intizomini saqlash; 28.7.15. jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlari va mehnatni muhofaza qilinishiga rioya qilishni ta’minlash; 28.7.16. Jamoa shartnomalarini va kelishuvlarni tuzishda ish beruvchi	management. 28.7.The Chairman of the Management Board of the Society is obliged to: 28.7.1.within the scope of its powers, to manage the activities of the Society, ensuring its effective and stable functioning, with the exception of issues falling within the scope of powers of the general meeting of shareholders or the Supervisory Board; 28.7.2. organize the implementation of decisions of the general meeting of shareholders and the Supervisory Board; 28.7.3. ensure the effective interaction of production units, workshops and other structural divisions of society; 28.7.4. ensure the fulfillment of the Society's contractual obligations and obtaining profits in the amount necessary for the development of production and the social sphere; 28.7.5. manage the development of community programs and business plans, organize and monitor their implementation; 28.7.6. submit a quarterly report to the Supervisory Board on the implementation of the Society's annual business plan; 28.7.7. compliance with legal requirements in the activities of the Society; 28.7.8. organize the Society's accounting and reporting, ensure their reliability, and timely submit annual reports and other financial reports to relevant organizations; 28.7.9. submit documents on the financial and economic activities of the Society without hindrance in accordance with the requirements of the Supervisory Board and the auditing organization; 28.7.10. ensure the completeness and timely submission of state statistical reports to relevant organizations; 28.7.11.not to disclose information constituting a commercial secret of the Society, unless its duties include providing such information to third parties; 28.7.12.ensure that information constituting a service or commercial secret is not disclosed by company employees; 28.7.13. take measures to provide society with qualified personnel and make better use of the knowledge, skills, experience and abilities of its employees; 28.7.14. maintain labor and production discipline; 28.7.15. ensure compliance with social guarantees and labor protection for employees of the Society; 28.7.16. participate as an employer in the conclusion of collective

sifatida qatnashish hamda jamoa shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni bajarish;	agreements and agreements and fulfill obligations under the collective agreement;
28.7.17. aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va Kuzatuv kengashiga uning vakolatlari doirasiga kiruvchi ishlar holati to‘g‘risida ma’ruzalarni o‘rnatilgan muddatlarda taqdim etish;	28.7.17. submit reports to the general meeting of shareholders and the Supervisory Board on the status of matters within its competence within the established deadlines;
28.7.18. aksiyadorlarning amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan axborotni olish, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishlarida ishtirok etish, dividendlarni hisoblash va to‘lash bo‘yicha barcha huquqlarga rioya qilish;	28.7.18. exercise all rights of shareholders under applicable law, including the right to receive information, participate in general meetings of shareholders, and receive and collect dividends;
28.7.19. O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligining qoidalariga va jamiyatning ichki hujjatlariga rioya qilish;	28.7.19. compliance with the provisions of the current legislation of the Republic of Uzbekistan and the internal documents of the Society;
28.7.20. aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va/yoki Kuzatuv kengashi unga topshirishi mumkin bo‘lgan boshqa majburiyatlarni bajaradi.	28.7.20.perform other duties that the general meeting of shareholders and/or the Supervisory Board may assign to him.
28.8. Boshqaruv raisi bo‘lmaganida, uning huquq va majburiyatlari jamiyatning tegishli buyrug‘i bilan boshqa shaxsga yuklatiladi.	28.8.In the absence of the Chairman of the Board, his rights and obligations shall be assigned to another person by the relevant order of the Society.
28.9. Jamiyat boshqaruv raisi vazifasini boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozim bilan bir vaqtda faoliyat olib borishga faqatgina jamiyatning Kuzatuv kengashi qarori bilan yo‘l qo‘yiladi.	28.9. The duties of the chairman of the management board of the company simultaneously with the position in the management bodies of other organizations are allowed only by decision of the Supervisory Board of the Society.
28.10. Jamiyat boshqaruvi jamiyat ustavi asosida ish yuritadi va o‘z vakolati doirasida quyidagi majburiyat va huquqlarga ega:	28.10.The Management Board of the Society operates on the basis of the Society's Charter and, within its powers, has the following obligations and rights:
28.10.1. jamiyatning mol-mulk va pul mablag‘larini boshqarish;	28.10.1.to manage of the property and funds of the society;
28.10.2. jamiyatning tarkibiy bo‘linmalar to‘g‘risidagi nizom va jamiyat xodimlarining lavozim yo‘riqnomalarini tasdiqlash;	28.10.2.to approve the regulations on the structural divisions of the society and the job descriptions of the society's employees;
28.10.3. jamiyatning ichki me’yoriy hujjatlarini tasdiqlash, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining yoki Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiradigan ichki normativ hujjatlar bundan mustasno;	28.10.3. to approve the Society's internal regulatory documents, with the exception of internal regulatory documents that fall within the competence of the general meeting of shareholders or the Supervisory Board;
28.10.4. jamiyatning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan bajarilishi shart bo‘lgan jamiyat boshqaruvi qarorlarini qabul qilish;	28.10.4.to adopt of decisions of the Society's management that must be implemented by the Society's structural divisions;
28.10.5. jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalarini ishlab chiqilishini hamda ularni bajarilishini nazorat qilish;	28.10.5. control over the development and implementation of programs and business plans for the development of Society;
28.10.6. jamiyatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan biznes-rejada ko‘rsatilgan miqdorlarda foyda olishni ta’minlash;	28.10.6.to ensure the receipt of profits in the amounts specified in the business plan approved by the authorized body of the Society;
28.10.7. jamiyat buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tashkil etish, ularni ishonchliligini ta’minlash, tegishli tashkilotlarga yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlarni o‘z vaqtida taqdim etish;	28.10.7.to organize the Society's accounting and reporting, ensure their reliability, and timely submit annual reports and other financial reports to relevant organizations;
28.10.8. jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi hujjatlarni jamiyat Kuzatuv kengashi yoki jamiyat auditori talabiga ko‘ra qarshiliksiz taqdim etish;	28.10.8.to submit documents on the financial and economic activities of the Society without resistance upon request of the Supervisory Board of the Society or the Society's auditor;
28.10.9. o‘z vakolati doirasida mol-mulkni sotib olish yoki uni	

begonalashtirish, hamda begonalashtirish ehtimoli bilan bog‘liq bitimlar tuzish (agar boshqaruv a’zolari bir ovozdan kelishmasa, ushbu bitimni tuzish masalasi jamiyatning kuzatuv kengashiga ko‘rib chiqish uchun kiritiladi); 28.10.10. jamiyatning tijorat siri bo‘lgan ma’lumotlarini saqlash; 28.10.11. dividendlar hisoblanishi va to‘lanishi bo‘yicha aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilish; 28.10.12. o‘z vakolati doirasida jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta’minlash; 28.10.13. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari talablari hamda jamiyat ichki hujjatlariga rioya qilish; 28.10.14. har kanday bitim tuzilishida yoki jamiyatga bevosita tegishli bo‘lgan har qanday masalada muhim manfaatdorligi (to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bilvosita yoki uchinchi shaxslar nomidan) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamiyat kuzatuv kengashiga yetkazish 28.10.15. jamiyat obro‘siga zarar yetkazuvchi xatarlarini boshqarish; 28.10.16. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, mazkur ustav va jamiyatning me’yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar (huquqlar) va majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin. 28.11. Jamiyat boshqaruvining majlislarida bayonnoma yuritiladi. Jamiyat boshqaruvi majlisining bayonnomasi Kuzatuv kengash a’zolari talabiga ko‘ra beriladi. 28.12. Jamiyatning boshqaruvi majlislarini o‘tkazishni boshqaruv raisi tashkillashtirib, u jamiyat nomidan barcha hujjatlarni va jamiyat boshqaruvi majlisining bayonnomasini imzolaydi, jamiyat boshqaruvi tomonidan uning vakolat doirasida qabul qilingan qarorlarga muvofiq jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi. 28.13. Ijroiya organi rahbari va uning o‘rinbosarlari faoliyatining samaradorligi Vazirlar Mahkamasi tomonidan har yili tasdiqlanadigan eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) asosida baholanadi. Bunda ijroiya organi rahbari va uning o‘rinbosarlari faoliyatining keyingi hisobot yili uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) va ularga erishish bo‘ycha “yo‘l xaritalari” rahbar va o‘rinbosarlar uchun alohida choraklar kesimida ishlab chiqilib, kuzatuv kengashi tomonidan ma’qullanganidan so‘ng, tasdiqlash uchun har yili 15 dekabriga qadar Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi. 28.14. Ijroiya organi rahbari va uning o‘rinbosarlarini rag‘batlantirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 13 martdagi PF-49-son	28.10.9.within its competence, to conclude transactions related to the acquisition or alienation of property, as well as the possibility of alienation (if the members of the Management Board do not unanimously agree, the issue of concluding this transaction is submitted for consideration to the Supervisory Board of the Society); 28.10.10.to storage of information constituting a trade secret of the Society; 28.10.11.to compliance with all rights of shareholders regarding the calculation and payment of dividends; 28.10.12.to ensure the effective and sustainable functioning of society within its competence; 28.10.13. to compliance with the requirements of the laws of the Republic of Uzbekistan and internal documents of the Society; 28.10.14.to inform the Society's Supervisory Board about any significant interest (directly, indirectly or on behalf of third parties) in any transaction or any matter directly related to the Society. 28.10.15. to manage risks that damage the reputation of the Society; 28.10.16. The Society may also have other powers (rights) and obligations in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan, this Charter, and the Society’s regulatory documents. 28.11. The Minutes shall be kept at the meetings of the Management Board. The Minutes of the meetings of the Management Board shall be provided upon request by the members of the Supervisory Board. 28.12. The Chairman of the Board organizes the meetings of the Society's board, signs all documents and Minutes of the meeting of the Society's board on behalf of the Society, and acts on behalf of the Society without a power of attorney in accordance with the decisions adopted by the Society's board within the scope of his authority. 28.13. The effectiveness of the activities of the Head of the Executive Body and his deputies is assessed on the basis of the most important performance indicators (KPIs) approved annually by the Cabinet of Ministers. In this case, the most important performance indicators (KPIs) of the activities of the Head of the Executive Body and his deputies for the next reporting year and "roadmaps" for their achievement are developed for the head and deputies separately in quarters and, after approval by the Supervisory Board, are submitted to the Cabinet of Ministers for approval by December 15 of each year. 28.14.Incentives for the Head of the Executive Body and his deputies are

Farmonida belgilangan tartibda ularning KPI natijalaridan kelib chiqib, jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarida va/yoki biznes-rejasida belgilangan miqdorda amalga oshiriladi.	provided in the amount established in the internal regulatory documents of the Society and/or business plan, based on their KPI results, in accordance with the procedure established by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-49 dated March 13, 2024.
XXIX. KUZATUV KENGASHI VA JAMIYAT IJROIYA ORGANI A'ZOLARINING JAVOBGARLIGI	**XXIX. RESPONSIBILITY OF MEMBERS OF THE SUPERVISORY BOARD AND THE EXECUTIVE BODY OF THE SOCIETY**
29.1. Jamiyat Kuzatuv kengashi va ijroiya organi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim. 29.2. Agar mazkur 29-bandning qoidalariga muvofiq bir necha shaxs javobgar bo'lsa, ularning jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari, boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi bundan ""Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-370-sonli Qonunning(yangi tahrirda) 90-moddasida belgilangan hollar mustasno. 29.3. Jamiyat ijroiya organi jamiyat mulkini tasarruv etishdan shaxsiy foyda olish bo'yicha harakatlarga yo'l qo'ymasliklari kerak. 29.4. Ijroiya organi o'zining ushbu lavozimda ishlagan faoliyati davrida jamiyat mahsulotini sotish yoki xizmatlarini ko'rsatishda qiyinchiliklarga olib keladigan korxonalarni tashkil etishda yoki ularda ishtirok etish huquqiga ega emas. 29.5. Jamiyat joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida 1 % (bir foiziga) egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) jamiyatga yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zosi, direktori va/yoki ijroiya organi ustidan sudga murojaat qilishga haqli. 29.6. Sud jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosini, direktorini yoki boshqaruvi a'zosini jamiyatga mulkiy zarar yetkazganlikda aybdor deb topgan taqdirda, ushbu a'zoning, direktorning yoki boshqaruv a'zosining vakolatlari sudning qaroriga ko'ra, ularning xo'jalik jamiyatlarida rahbarlik lavozimini egallashini taqiqlagan holda, bir yildan kam bo'lmagan muddatga tugatilishi mumkin. 29.7. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi, direktori yoki boshqaruvi a'zosi, shuningdek ishonchli boshqaruvchi jamiyatga chalg'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganligi yoxud o'zlari yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida yirik bitim tuzishni va (yoki) yirik bitim tuzish va (yoki) affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror	29.1. Members of the Supervisory Board and the Executive Body of the Society must act in the interests of the Society in exercising their rights and fulfilling their obligations and be responsible in accordance with the established procedure. 29.2. If several persons are liable in accordance with the provisions of this paragraph 29, their liability to the Society shall be joint and several. Members of the Supervisory Board and members of the Management Board of the Society shall not be liable for a decision that caused damage to the Society if they did not participate in the voting on such a decision or voted against it, except in cases specified in Article 90 of the Law of the Republic of Uzbekistan No. LRU-370 "On Amendments and Additions to the Law on Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights" (as amended). 29.3. The Executive Body of the Society should not allow actions aimed at obtaining personal profit from the management of public property. 29.4. The Executive Body is not entitled to create or participate in enterprises that, during its activities, impede the sale of products or the provision of services to the Society. 29.5. A shareholder (shareholders) owning at least 1% (one percent) of all placed shares has the right to file a lawsuit against a member of the Supervisory Board, director and/or Executive Body of the Society with a claim for compensation for damages caused to the Society. 29.6. If a member of the Supervisory Board, director or board member of the Society is found guilty of causing property damage to the Society, the powers of this member, director or board member of the Society may be terminated by a court decision for a period of not less than one year, with a ban on them from holding management positions in business companies. 29.7. A member of the Supervisory Board of the Society , director or board member of the Society, as well as a trustee, may be held liable for damage caused by providing misleading or knowingly false information to the Society or by proposing to conclude a major transaction and (or) make a decision to conclude a major transaction and (or) conclude transactions with affiliated persons in order to obtain profit (income).

qabul qilishni taklif etganligi natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. 29.8. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi, boshqaruv direktori yoki a'zosi, shuningdek ishonchli boshqaruvchi quyidagilar natijasida jamiyatga yetkazilgan zarar uchun javobgar boʻladi: - chalgʻituvchi axborot yoki bila turib yolgʻon axborot taqdim etganlik; - ushbu Qonunda belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik; - jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab boʻlgan yirik bitimlarni va (yoki) amalga oshirilishidan manfaatdorlik mavjud boʻlgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan jamiyat bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida oʻzlari yoki oʻz affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik; - fidutsiar majburiyatlarni bajarmaslik. 29.9. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining, jamiyat direktorining, boshqaruv a'zolarining hamda ishonchli boshqaruvchining fidutsiar majburiyatlari quyidagilarni oʻz ichiga oladi: - vazifa va majburiyatlarini amalga oshirishda vijdonan harakat qilib, jamiyat va aksiyadorlar manfaatlarini eng koʻp aks ettiruvchi usullardan foydalanishni; - jamiyat mol-mulkidan jamiyatning ustaviga va ichki hujjatlariga zid ravishda va (yoki) aksiyadorlar umumiy yigʻilishining va (yoki) kuzatuv kengashining qarorlarisiz, shaxsiy manfaatlarini koʻzlab foydalanmaslikni hamda undan boshqa shaxslar tomonidan shu tarzda foydalanilishiga yoʻl qoʻymaslikni; - jamiyatning biznes imkoniyatlaridan yoki jamiyat uchun manfaatli boʻlgan ob'ektlardan oʻz vazifalarini bajarishi munosabati bilan yoki oʻz mavqeidan kelib chiqqan holda, jamiyatning tegishli boshqaruv organlari roziligisiz, shaxsiy naf olish maqsadida yoki boshqa shaxslar manfaatlarini koʻzlab, shunday naf olishga koʻmaklashish maqsadida foydalanmaslikni; - jamiyatning asosiy faoliyati yoʻnalishlariga xos boʻlgan sohadagi tadbirkorlik faoliyatini jamiyatning tegishli boshqaruv organlari roziligisiz amalga oshirmaslikni; - qonunchilikka, jamiyatning ichki hujjatlariga va shartnomaga muvofiq jamiyat faoliyati toʻgʻrisidagi maxfiy axborotni oshkor qilmaslikni; - oʻz vazifalarini bajarish bilan bogʻliq qarorlar qabul qilish evaziga moddiy qimmatliklar olmaslikni yoki bundan manfaatdor boʻlgan shaxslardan mulkiy manfaatdor boʻlmaslikni.	29.8. A member of the Supervisory Board, a director, or a member of the Management Board of the Company, as well as a trustee, shall be liable for losses caused to the Company resulting from: - Provision of misleading or knowingly false information; - Violation of the procedure for providing information established by this Law; - Proposing the conclusion of and (or) making decisions to conclude major transactions and (or) interested party transactions, as well as transactions with affiliates for the purpose of obtaining profit (income) by them or their affiliates, which resulted in losses for the Company; - Failure to perform fiduciary duties. 29.9. Fiduciary duties of the members of the Supervisory Board, the Director, members of the Management Board, and the Trustee shall include the following: - To act in good faith, using methods that best serve the interests of the Company and its shareholders; - Not to use the Company's property for personal gain and not to allow such use in the interests of other persons contrary to the Articles of Association and internal documents of the Company and (or) without the resolutions of the General Meeting of Shareholders and (or) the Supervisory Board; - Not to use the Company's business opportunities or assets of interest to the Company, in connection with the performance of their duties or based on their status, for the purpose of personal gain or assisting others in obtaining such gain, without the consent of the relevant management bodies of the Company; - Not to engage in business activities in the field specific to the Company's core business lines without the consent of the relevant management bodies of the Company; - Not to disclose information regarding the Company's activities that is confidential in accordance with the legislation, internal documents of the Company, and the contract; - Not to receive material values or any other property benefits from interested parties for making decisions related to the performance of their duties.
XXX. BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTI. HUJJATLARNI SAQLASH. AXBOROT BERISH	**XXX. ACCOUNTING AND REPORTING. DOCUMENT KEEPING. INFORMATION PROVISION**
30.1. Jamiyat Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga, Oʻzbekiston buxgalteriya hisobining milliy standartlariga (BHMS) va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) muvofiq buxgalteriya hisobini yuritadi va	30.1. The Society shall maintain accounting records and submit financial statements in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan, the National Accounting Standards of Uzbekistan (NAS) and International Financial

moliyaviy hisobotlarni taqdim etishi shart. 30.2. Jamiyat buxgalteriya hisobi tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarda aksiyadorlarga, kreditorlarga taqdim etiladigan jamiyat faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik jamiyat ijroiya organining zimmasida bo‘ladi. 30.3. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga taqdim etiladigan jamiyatning moliyaviy hisobotdagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobvarag‘idagi ma’lumotlarning ishonchliligi mulkiy manfaatlari jamiyat yoki uning aksiyadorlari bilan bog‘liq bo‘lmagan auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. 30.4. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi jamiyat tashqi auditori sifatida va yillik moliyaviy hisobotni tasdiqlash uchun jamiyatning mulkiy manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lmagan auditorlik tashkilotini tayinlaydi. 30.5. Jamiyatning yillik hisoboti aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan 30 (o‘ttiz) ish kundan kechiktirmay jamiyatning Kuzatuv kengashiga dastlabki tasdiqlanishi uchun taqdim qilinishi kerak. 30.6. Jamiyat o‘z faoliyati bilan bog‘liq hujjatlarni saqlashi shart. Majburiy saqlanishi kerak bo‘lgan hujjatlar ro‘yxati qonunchilikda belgilanadi. 30.7. Jamiyat aksiyadorlarga qonunchilikda nazarda tutilgan hujjatlardan foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi, buxgalteriya hisobi hujjatlari hamda jamiyat boshqaruvi raisi buyruqlari va aksiyadorlari reestri bundan mustasno. 30.8. Jamiyat qonunchilikda nazarda tutilgan tartib va muddatlarda jamiyat to‘g‘risidagi axborotni oshkor qilishi shart.	Reporting Standards (IFRS). 30.2.The Executive Body of the Society shall be responsible for the organization, condition and reliability of the Society's accounting records, the timely submission of annual reports and other financial reports to the relevant bodies, as well as information on the Society's activities, which is provided to shareholders and creditors on the Society's official website and in the media. 30.3. The reliability of the information in the Society's financial statements, balance sheet, and profit and loss account submitted to the general meeting of shareholders must be confirmed by an auditing organization whose proprietary interests are not related to the Society or its shareholders. 30.4. The general meeting of shareholders shall appoint an auditing organization that is not related to the property interests of the Society as the Society's external auditor and to approve the annual financial statements. 30.5. The annual report of the Society must be submitted for initial approval to the Supervisory Board of the Society no later than 30 (thirty) business days from the date of the annual general meeting of shareholders. 30.6. The Society is obliged to keep documents related to its activities. The list of documents that must be kept is determined by law. 30.7. The Society provides shareholders with access to documents stipulated by law, with the exception of accounting documents, orders of the chairman of the Society's board and the register of shareholders. 30.8. The Society is obliged to disclose information about the Society in accordance with the procedure and within the time limits stipulated by law.
XXXI. JAMIYAT FAOLIYATINI NAZORAT QILISH: AUDITORLIK TASHKILOTI, ICHKI AUDIT XIZMATI, JAMIYATNING KORPORATIV MASLAHATCHISI	**XXXI. CONTROL OF THE SOCIETY'S ACTIVITIES: AUDITING ORGANIZATION, INTERNAL AUDIT SERVICE, CORPORATE ADVISOR OF THE SOCIETY**
31.1.Jamiyatning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalarini tekshirish auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi. Auditorlik tashkiloti va uning audit o‘tkazish xizmatlariga haq to‘lashning eng yuqori miqdorini tasdiqlash jamiyat aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan amalga oshiriladi. 31.2. Auditorlik tashkiloti jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyat moliya-xo‘jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik xulosasini taqdim etadi. Auditorlik tashkiloti jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborot to‘g‘risidagi noto‘g‘ri xulosani o‘z ichiga olgan auditorlik xulosasi tuzilganligi oqibatida	31.1. The audit of the results of financial and economic activities of the Society is carried out by the auditing organization. The approval of the audit organization and the maximum amount of remuneration for its audit services is carried out by the general meeting of shareholders of the Society. 31.2. The auditing organization shall, in accordance with the contract concluded with the Society, carry out an audit of the financial and economic activities of the Society in accordance with the procedure established by law and submit an audit report to it. The auditing organization shall be liable to the Society for any damage caused as a result of the preparation of an audit report containing

yetkazilgan zarar uchun jamiyat oldida javobgar bo‘ladi. 31.3. Jamiyatning ichki audit xizmati jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonun hujjatlariga, jamiyat Ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma’lumotlarning to‘liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishini ta’minlanishi, xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi. 31.4. Jamiyatning ichki audit xizmati o‘z faoliyatini amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan ichki audit xizmati to‘g‘risidagi Nizomga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiradi. 31.5. Jamiyat korporativ maslahatchisi jamiyat Kuzatuv kengashiga hisobdor bo‘lgan va korporativ qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajaradi. Jamiyat korporativ maslahatchisining faoliyati jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi.	an incorrect conclusion on the Society's financial statements and other financial information. 31.3. The internal audit service controls and evaluates the work of the executive body, branches and representative offices of the Society by verifying and monitoring compliance with the legislation, the Society's Charter and other documents, ensuring complete and reliable reflection of information in accounting and financial statements, compliance with established rules and procedures for conducting business transactions, safeguarding assets, as well as compliance with the requirements established by the legislation on the management of the Society. 31.4. The internal audit service carries out its activities in accordance with the requirements of current legislation and in accordance with the procedure established by the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, based on the Regulations on the internal audit service, approved by the Supervisory Board of the Society. 31.5. The corporate advisor shall be accountable to the Supervisory Board of the Society and performs the function of monitoring compliance with corporate legislation. The activities of the corporate advisor of the Society are carried out on the basis of the Charter approved by the Supervisory Board of the Society.
XXXII. JAMIYATNI TUGATISH VA QAYTA TASHKIL ETISH	**XXXII. LIQUIDATION AND REORGANIZATION OF THE SOCIETY**
32.1. Jamiyatning aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilingan qarorga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq bankrot deb e’lon qilingan taqdirda sud qarori bo‘yicha va amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko‘ra tugatilishi mumkin. 32.2. Jamiyatni tugatish O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 53- 57-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” qonunining (yangi tahririda) 98 va 101 -moddalariga muvofiq amalga oshiriladi. 32.3. Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ qo‘shib yuborilgan yuridik shaxsning (jamiyatning) faoliyati tugatilganligi haqidagi yozuvni yuridik shaxsning (jamiyatning) yagona davlat reestriga kiritgan paytdan e’tiboran jamiyat tugatilgan deb hisoblanadi. 32.4. Jamiyatni qayta tashkil etish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga ko‘ra qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish va o‘zgartirish shaklida amalga oshiriladi. 32.5. Jamiyatni qayta tashkil etish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining	32.1.The Society may be liquidated by a court decision in the event of bankruptcy in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan, by a decision adopted by the general meeting of shareholders, and on other grounds provided for by current legislation. 32.2.Liquidation of the Society is carried out in accordance with Articles 53-57 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan, Articles 98 and 101 of the Law of the Republic of Uzbekistan “On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights” (as amended). 32.3. The Society is considered liquidated from the moment the registering authority enters an entry in the Unified State Register of Legal Entities (Companies) on the termination of the activities of the merged legal entity (company). 32.4. The reorganization of the Society is carried out in the form of merger, acquisition, division, separation and transformation by decision of the general meeting of shareholders. 32.5.The reorganization of the Society is carried out in the form of merger,

qaroriga ko‘ra qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish va o‘zgartirish shaklida amalga oshiriladi. Jamiyatni qayta tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. 32.6. Qayta tashkil etish natijasida yangidan vujudga kelgan jamiyatlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hamda qayta tashkil etilgan jamiyatlarning faoliyati tugatilganligi to‘g‘risidagi yozuvni kiritish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. 32.7. Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ qayta tashkil etish natijasida tugatilayotgan jamiyat qimmatli qog‘ozlarining chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi bekor qilinganidan, shuningdek u yuridik shaxslarning yagona davlat reestridan chiqarilganidan keyin yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiradi. 32.8. Yangi tuzilgan yuridik shaxslar davlat ro‘yxatiga olingan paytdan e’tiboran jamiyat qayta tashkil etilgan deb hisoblanadi, birlashtirish tarzida qayta tashkil etish bundan mustasno. Jamiyat boshqa yuridik shaxsga qo‘shib yuborish yo‘li bilan qayta tashkil etilganda ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ qo‘shib yuborilgan yuridik shaxsning (jamiyatning) faoliyati tugatilganligi haqidagi yozuvni yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga kiritgan paytdan e’tiboran jamiyat qayta tashkil etilgan deb hisoblanadi.	acquisition, division, separation and transformation by decision of the general meeting of shareholders. Reorganization of the Society is carried out in the manner prescribed by the legislation of the Republic of Uzbekistan. 32.6. The state registration of companies newly established as a result of reorganization, as well as the entry of a record on the termination of the activities of the reorganized companies, shall be carried out in accordance with the procedure established by law. 32.7.The registering authority shall carry outthe state registration of newly formed legal entities after the cancellation of the state registration of the issue of securities of a company being liquidated as a result of reorganization, as well as after its removal from the Unified State Register of Legal Entities. 32.8. The Society is considered reorganized from the moment of state registration of newly formed legal entities, with the exception of reorganization by merger. When the Society is reorganized by merging with another legal entity, a society is considered reorganized from the moment the registering authority enters an entry in the Unified State Register of Legal Entities on the termination of the activities of the merged legal entity (Society).
XXXIII. TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIK	**XXXIII. REGULATORY LEGISLATION**
33.1. Mazkur Ustavni tartibga soluvchi qonunchiligi deb O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi hisoblanadi.	33.1. The legislation governing this Charter is the legislation of the Republic of Uzbekistan.
XXXIV. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI	**XXXIV. DISPUTE RESOLUTION PROCEDURE**
34.1. Jamiyatning yuridik va jismoniy shaxslar bilan bo‘lgan barcha nizolari tegishli sudda yoki bunga vakolatli boshqa organlarda ko‘rib chiqiladi.	34.1. All disputes between the Society and legal entities and individuals shall be considered in the appropriate court or other authorized bodies.
XXXV. XABARNOMALAR	**XXXV. NEWSLETTERS**
35.1. Mazkur Ustavda o‘zga qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushbu Ustavda talab qilinadigan yoki ruxsat etilgan har qaysi xabarnoma, iltimosnoma, rozilik yoki boshqa yozishmalar (birgalikda “xabarnoma”) yozma ravishda shaxsan, ro‘yxatdan o‘tgan pochta orqali yetkazilib berilishi kerak. 35.2. Har qanday xabarnomaning yetkazib berishning haqiqiy sanasi deb quyidagilar hisoblanadi: 35.2.1. shaxsan - yetkazib berilgan kun yoki olingan kun; 35.2.2. buyurtma pochta orqali - jo‘natmani qabul qilgan bo‘linmaning pochta shtampi sanasi; 35.3. Agar xabarnomani olish kuni adresatning shanba, yakshanba yoki	35.1. Unless otherwise provided in this Charter, any notice, request, consent, or other correspondence required or permitted under this Charter (collectively, a “notice”) must be delivered in writing either personally or by registered mail. 35.2.The effective date of delivery of any notice shall be: 35.2.1.in person - the day of delivery or the day of receipt; 35.2.2.by registered mail - the date of the postmark of the department that received the shipment; 35.3. If the date of receipt of the notice falls on a Saturday, Sunday or holiday of the addressee, then the actual date of delivery shall be the first following business day.

bayram kuniga to'g'ri kelsa, unda yetkazib berilganlikning haqiqiy sanasi deb keyingi birinchi ish kuni hisoblanadi. 35.4. Shaxsan yetkazib berilgan taqdirda, yetarlicha yetkazib berilganlik dalili deb to'g'ri manzilga yetkazib berilganlik dalili bo'ladi.	35.4. In the case of personal delivery, proof of sufficient delivery shall be proof of delivery to the correct address.

"Navoiyazot" AJ boshqaruv raisi v.b. **F.X. Samadov**

Acting Chairman of the Management Board